33. Aylananing radiusi 8 ga teng. Aylanaga ichki chizilgan muntazam uchburchakning yuzini toping.
A) $36\sqrt{2}$ B) 64 C) $48\sqrt{3}$ D) $27\sqrt{3}$

34. Muntazam to'rtburchakli piramida asosining tomoni 5 ga, to'la sirti 65 ga teng. Piramida yon yog'ining asos tekisligiga og'ish burchagini toping.
A) $arcsin\frac{5}{8}$ B) $arccos\frac{5}{8}$ C) $arcsin\frac{5}{16}$
D) $arccos\frac{5}{16}$

35. Sharga ichki chizilgan konusning asosi sharning katta doirasiga teng. Konus o'q kesimining yuzi 36 ga teng. Sharning hajmini toping.
A) 144π B) 432π C) 288π D) 334π

36. $\frac{2cos^2\frac{\alpha}{2}}{ctg\frac{\alpha}{4} - tg\frac{\alpha}{4}}$ ni soddalashtiring.
A) $cos\alpha$ B) $-sin\alpha$ C) $\frac{1}{2}sin\alpha$ D) $sin\alpha$

Matematika

1. $3\frac{3}{5} : 2\frac{7}{10} = 3\frac{3}{4} : x$ proporsiyaning noma'lum hadini toping.

   A) $2\frac{3}{10}$ B) $2\frac{13}{16}$ C) $1\frac{15}{16}$ D) $3\frac{1}{3}$

2. $a = 4b$ va $c + 12b = 0$ $(b \neq 0)$ bo'lsa, $\frac{a}{c}$ni toping.

   A) $-\frac{1}{4}$ B) $-\frac{1}{3}$ C) -4 D) 3

3. Agar $f(x) = (2x+3)(\frac{3}{x} - 3)$ bo'lsa, $f(-1)$ ni toping.

   A) 6 B) 0 C) -3 D) -6

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
   1) $(x+a)\cdot(x-b) = x^2 - (a-b)x - ab$;
   2) $(x-c)\cdot(x-d) = x^2 - (c+d)x + cd$;
   3) $(x-e)\cdot(x+d) = x^2 - (e-d)x - ed$;
   4) $6ab + (2a^3 + b^3 - (3ab^2 - (a^3 + 2ab^2 - b^3))) = 3a^3 - ab^2 + 6ab$.

   A) 2;3;4 B) 1;2;3 C) 1;2;4 D) 1;3;4

5. $\frac{x^2 + 4xy}{-16y^2 + x^2}$ kasrni qisqartiring.

   A) $-\frac{x}{x+4y}$ B) $\frac{x}{x+4y}$ C) $\frac{y}{4y-x}$
   D) $\frac{x}{x-4y}$

6. $\begin{cases} x^2 + y^2 + xy = 7 \\ x + y = 3, \quad 2\cdot x\cdot y - ? \end{cases}$

   A) 1 B) 3 C) 4 D) 2

7. $f(x) = x^2$ funksiyaning (3; 5) nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.

   A) $\frac{x^3}{3} - 7$ B) $\frac{x^3}{3} + 7$ C) $2x + 4$
   D) $\frac{x^3}{3} - 4$

8. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?
   A) *Agar ikkita teng yonli uchburchakning asoslari va asoslaridagi burchaklari teng bo'lsa, bunday uchburchaklar tengdir.*
   B) *Teng tomonli uchburchakning balandliklari uchidan boshlab hisoblanganda kesishish nuqtasida 2:1 nisbatda bo'linadi.*
   C) *Agar bir uchburchakning bir tomoni va shu tomon qarshisidagi burchagi, ikkinchi uchburchakning bir tomoni va shu tomon qarshisidagi burchagiga mos ravishda teng bo'lsa, bu uchburchaklar tengdir.*
   D) *Qavariq beshburchak ichki burchaklarining yig'indisi 540° ga teng.*

9. $x^2 + y^2 - 4x + 6y - 3 = 0$ tenglama bilan berilgan aylananing markazini toping.

   A) $(4; -4)$ B) $(-4; -3)$ C) $(2; -3)$
   D) $(-4; 6)$

10. Tekislikka tushirilgan og'ma va perpendikulyar orasidagi burchak $arcsin\frac{5}{13}$ ga teng. Og'maning uzunligi 39 ga teng. Perpendikulyarning uzunligini toping.

    A) 72 B) $11\frac{7}{13}$ C) 36 D) $27\frac{9}{13}$

11. Quyidagilardan qaysi biri Oyz tekislikka nisbatan $P(3; -2; 4)$ nuqtaga simmetrik bo'lgan nuqta?

    A) $(3; 2; -4)$ B) $(3; 2; 4)$ C) $(-3; -2; 4)$
    D) $(-3; 2; -4)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
    1) $cos(x-y) = cosx\cdot cosy + sinx\cdot siny$;
    2) $tg(x+y) = \frac{tgx + tgy}{1 - tgx\cdot tgy}$,
    $x, y, x+y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$;
    3) $cosx + cosy = -2sin\frac{x+y}{2}sin\frac{x-y}{2}$;
    4) $tgx - tgy = \frac{sin(x-y)}{cosx\cdot cosy}$,
    $x, y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$.

    A) 1;2;4 B) 2;3;4 C) 1;3;4 D) 1;2;3

13. Quyidagi oddiy kasr ko'rinishida berilgan sonlardan qaysilarini chekli o'nli kasr ko'rinishiga keltirib bo'lmaydi:
    1) $\frac{15}{35}$; 2) $\frac{4}{125}$; 3) $\frac{11}{80}$; 4) $\frac{20}{55}$?

    A) *3; 4* B) *1; 2* C) *1; 4* D) *1; 3*

14. Massasi 400 g va konsentratsiyasi 16% bo'lgan eritma massasi 600 g va konsentratsiyasi 12% bo'lgan eritma bilan aralashtirildi. Hosil bo'lgan aralashmaning konsentratsiyasini (%) toping.

    A) 12 B) 11 C) 14,2 D) 13,6

15. $\frac{19}{\sqrt{20} - 1} - 2\sqrt{5} + 4$ ni soddalashtiring.

    A) 5 B) 6 C) 4 D) $2\sqrt{5} + 4$

16. $4^{13} + 4^{13} + 4^{13} + 4^{13}$ yig'indining yarmini hisoblang.

    A) 2^{24} B) 2^{25} C) $8\cdot 4^{12}$ D) 4^{48}

17. $\frac{0,2^2 + 2\cdot 0,2\cdot 0,3 + 0,3^2}{0,5\cdot 0,4 - 0,5\cdot 0,8}$ ni hisoblang.

    A) $-2,5$ B) -25 C) $-1,25$ D) -1

18. b ning qanday qiymatlarida $b(2-x)=8$ tenglamaning ildizi manfiy bo'ladi?
A) $(0;4)$ B) $(-\infty;0)$ C) $[4;\infty)$ D) $(-4;0)$

19. k ning qanday qiymatlarida $kx^2-(k-9)x+3=0$ tenglama ikkita teng manfiy ildizga ega?
A) 1 B) 49; 1 C) 3 D) $-49;-1$

20. Arifmetik progressiyaning beshinchi hadi $5\frac{1}{3}$ ga teng. Uning dastlabki to'qqizta hadi yig'indisini toping.
A) 48 B) 36 C) 45 D) 54

21. $y=lnx$ funksiyaning grafigiga abssissasi $x_0=1$ bo'lgan nuqtada urinma o'tkazilgan. Urinmaning abssissasi 14 ga teng nuqtasi ordinatasini toping.
A) 13 B) 12 C) 15 D) 14

22. To'g'ri burchakli uchburchak katetlaridan biri 12 sm, gipotenuzasi esa ikkinchi katetdan 4 sm uzun. Gipotenuzaning uzunligini toping.
A) 22 B) 20 C) 18 D) 16

23. a ning qanday qiymatlarida $ax+3y=8$ va $y-x=4$ to'g'ri chiziqlar parallel bo'ladi ?
A) $a=2$ B) $a=1$ C) $a\in R$ D) $a=-3$

24. k ning quyida ko'rsatilgan qiymatlaridan qaysi birida $sinkxcosx-sinxcoskx=0$ tenglamaning ildizlari $\frac{\pi n}{7}\left(n\in Z\right)$ bo'ladi?
A) 8 B) 5 C) 7 D) 6

25. M ta sonning o'rta arifmetigi 14 ga, boshqa N tasiniki - 28 ga teng. Shu $M+N$ ta sonning o'rta arifmetigini toping.
A) $\frac{M+N}{42}$ B) $\frac{N}{M}$ C) $\frac{14M+28N}{M+N}$ D) $\frac{14N+28M}{M+N}$

26. x ning y ga nisbati 9:7 kabi, y ning z ga nisbati 14:15 kabi. z ning necha foizini x tashkil etadi?
A) 140 B) 120 C) 160 D) 80

27. $(x+6)(x+4)(x+2)x$ ko'paytmaning eng kichik qiymatini toping.
A) 9 B) -25 C) -16 D) -9

28. $(\sqrt{10}-\sqrt{2})\cdot\sqrt{3-\sqrt{5}}\cdot(3+\sqrt{5})-2$ ni hisoblang.
A) 4 B) 8 C) 6 D) 10

29. Raqamlarining yig'indisidan 8 marta katta, raqamlari kvadratlarining yig'indisi esa 53 ga teng bo'lgan ikki xonali sonning kvadratini toping.
A) 729 B) 5184 C) 6561 D) 529

30. $4x^2-16x\le -7$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari yig'indisini toping.
A) 4 B) 3 C) 6 D) 5

31. Geometrik progressiyada $b_1+b_5=51$ va $b_2+b_6=102$. Shu progressiyaning dastlabki yettita hadi yig'indisini toping.
A) 765 B) 361 C) 399 D) 381

32. $\frac{log_{\sqrt{6}}x-2}{log_{\sqrt{6}}x-4}\le 0$ tengsizlikning yechimlaridan nechtasi tub sonlardan iborat?
A) 5 B) 6 C) 7 D) 8

33. Teng yonli trapetsiyaning asoslari 10 va 18 ga, asosidagi burchagi 60° ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini hisoblang.
A) $56\sqrt{3}$ B) $36\sqrt{3}$ C) $28\sqrt{3}$ D) $46\sqrt{3}$

34. Muntazam uchburchakli piramidaning yon qirrasi 20 ga, asosining tomoni $16\sqrt{3}$ ga teng. Piramidaning balandligini toping.
A) $8\sqrt{3}$ B) 12 C) 8 D) 16

35. Qirrasi 12 ga teng bo'lgan kub yoqlarining markazlari tutashtirildi. Hosil bo'lgan jismning hajmini toping.
A) 144 B) 288 C) 216 D) 169

36. $sin^4\frac{17\pi}{8}-cos^4\frac{15\pi}{8}$ ni hisoblang.
A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $-\frac{\sqrt{2}}{2}$ D) $-\frac{\sqrt{3}}{2}$

Matematika

1. $6\frac{3}{8} - (2,5 - 2\frac{1}{3}) : 1\frac{1}{3}$ ni hisoblang.

   A) $5\frac{1}{4}$ B) $5\frac{2}{3}$ C) $6\frac{1}{4}$ D) $4\frac{1}{2}$

2. $\sqrt{\sqrt{56}+2\sqrt{5}} \cdot \sqrt{\sqrt{56}-2\sqrt{5}}$ ni hisoblang.

   A) 6 B) 2 C) 4 D) 3

3. k ning qanday qiymatlarida $y = \frac{k}{x} - 1$ funksiyaning grafigi $C(-2; -3)$ nuqtadan o'tadi?

   A) 4 B) 1 C) $\frac{1}{2}$ D) -1

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?

   1 $(x-c)\cdot(x-d) = x^2 + (c-d)x + cd$;
   2 $(x-e)\cdot(x+d) = x^2 - (e-d)x - ed$;
   3 $12x^2+y^2-(8x^2-5y^2-(-10x^2+(5x^2-6y^2))) = -x^2$;
   4) $3a-(2c-(6a-(c-b)+c+(a+8b)-6c)) = 10a+9b-8c$.

   A) 1;3;4 B) 1;2;4 C) 1;2;3 D) 2;3;4

5. $(b-c)(b^2+bc+c^2)$ ifodaning $b = \sqrt[3]{5}$ va $c = \sqrt[3]{3}$ bo'lgandagi qiymatini hisoblang.

   A) 8 B) 2 C) -8 D) -2

6. $\begin{cases} x+y=6, \\ x^2-y^2=12. \end{cases}$ $y-?$

   A) 4 B) 2 C) 3 D) 1

7. $f(x) = x - \frac{x^2}{2}$ funksiyaning $(6; 2)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.

   A) $\frac{x^2}{2} - \frac{x^3}{6} + 20$ B) $\frac{x^2}{2} + \frac{x^3}{6} - 56$
   C) $\frac{x^2}{2} - \frac{x^3}{6} + 18$ D) $\frac{x^2}{2} - \frac{x^3}{6} - 18$

8. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri to'g'ri?

   A) *Ikkita to'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzalari va bittadan o'tkir burchaklari bir- biriga teng bo'lsa, bunday uchburchaklar tengdir.*
   B) *Teng tomonli uchburchakning balandliklari kesishish nuqtasida 4:3 nisbatda bo'linadi.*
   C) *Ikkitadan tomoni, bittadan burchagi o'zaro teng bo'lgan uchburchaklar tengdir.*
   D) *Ikkita parallel to'g'ri chiziqni uchinchi to'g'ri chiziq bilan kesganda hosil bo'lgan ichki bir tomonli burchaklar yig'indisi 180° dan kichik.*

9. P(0;3) nuqtani koordinata boshi atrofida 90° ga burganda hosil bo'ladigan nuqtaning koordinatalarini toping.

   A) $(0; -3)$ B) $(3; 0)$ C) $(3; 3)$
   D) $(-3; 0)$

10. Tekislikka og'ma va perpendikulyar tushirilgan. Og'maning tekislikdagi proyeksiyasi 20 ga, perpendikulyarning uzunligi 21 ga teng. Og'ma va perpendikulyar orasidagi burchakni toping.

    A) $arccos\frac{20}{21}$ B) $arcsin\frac{20}{29}$ C) $arcsin\frac{20}{21}$
    D) $arctg\frac{21}{29}$

11. Oyz tekisligiga nisbatan (1;2;3) nuqtaga simmetrik bo'lgan nuqtani toping.

    A) $(-1;-2;3)$ B) $(-1;2;3)$ C) $(1;-2;3)$
    D) $(1;2;-3)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?

    1) $cos(x-y) = sinx \cdot cosy - cosx \cdot siny$;
    2) $cos^2\frac{x}{2} = \frac{1+cosx}{2}$;
    3) $cosx + cosy = 2cos\frac{x+y}{2}cos\frac{x-y}{2}$;
    4) $tgx + tgy = \frac{sin(x+y)}{cosx \cdot cosy}$,
    $x, y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$.

    A) 1;3;4 B) 1;2;3 C) 2;3;4 D) 1;2;4

13. $17,3 \cdot 3,6 + 2,7 \cdot 64 + 2,7 \cdot 36 + 17,3 \cdot 64$ ning qiymatini toping.

    A) 1800 B) 3000 C) 1600 D) 2000

14. Agar kvadratning perimetri 20% ga kamaytirilsa, uning yuzi necha foizga kamayadi?

    A) 40 B) 20 C) 19 D) 36

15. $\frac{x^{-3}+8}{x^{-2}-2x^{-1}+4}$ ning $x = 0,25$ dagi qiymatini hisoblang.

    A) 3 B) 6 C) 5 D) 4

16. $(\frac{2}{3})^{-3} + 2 \cdot 4^{-2} - (\frac{2}{3})^{-1}$ ni hisoblang.

    A) $4\frac{2}{3}$ B) $3\frac{1}{2}$ C) 2,5 D) 2

17. $a = 2^5 + 2^{-5}$ va $b = 2^5 - 2^{-5}$ bo'lsa, $a^2 - b^2 - 2$ nimaga teng?

    A) 2 B) 0 C) $\frac{1}{4}$ D) $\frac{1}{2}$

18. a ning qanday qiymatlarida $a(3x-a) = 12x - 16$ tenglama bitta musbat yechimga ega?

    A) $(-4;\infty)$ B) $(-4;4)$ C) $(4;\infty)$
    D) $(-4;4) \cup (4;\infty)$

19. Ildizlari $3x^2+x-4=0$ tenglamaning ildizlariga qarama-qarshi sonlardan iborat bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.
A) $3x^2-x+4=0$ B) $3x^2-x-4=0$
C) $3x^2-4x-1=0$ D) $3x^2+x+4=0$

20. Hadlari $x_n=4n+6$ $(n\in N)$ formula bilan berilgan ketma-ketlikning dastlabki o'ttizta hadi yig'indisini toping.
A) 1800 B) 2040 C) 1940 D) 2100

21. $y=x^2-5$ egri chiziqqa o'tkazilgan urinma $y=2x+3$ to'g'ri chiziqqa parallel. Urinish nuqtasining ordinatasini toping.
A) 2 B) 0 C) -4 D) 4

22. Chizmada $\angle DEB=60°$, BE=6 va DE=4 (uchburchakning o'rta chizig'i) bo'lsa, AB ni toping.



A) $5\sqrt{7}$ B) $3\sqrt{7}$ C) 7 D) $4\sqrt{7}$

23. Parallelogrammning diagonallari 7 va 24 ga teng. Uning barcha tomonlari kvadratlarining yig'indisini toping.
A) 1150 B) 1250 C) 625 D) 1350

24. Agar $2sin6x(cos^43x-sin^43x)=sinkx$ tenglik hamma vaqt o'rinli bo'lsa, k ni toping.
A) 24 B) 12 C) 18 D) 6

25. 6 ni berilgan songa ko'paytirganda, hosil bo'lgan son ...14 ko'rinishda bo'lsa, berilgan son quyidagilardan qaysi biri ko'rinishida bo'lishi mumkin?
A) ...19 B) ...24 C) ...14 D) ...79

26. Birinchi son 80 ga teng. Ikkinchi son birinchi sonning 80% ini, uchinchisi esa birinchi va ikkinchi son yig'indisining 50% ini tashkil qiladi. Bu sonlarning o'rta arifmetigini toping.
A) 64 B) 80 C) 54 D) 72

27. Agar $\frac{5x+1}{x^2-x-12}=\frac{a}{x+3}+\frac{b}{x-4}$ ayniyat bo'lsa, $b-a$ ni toping.
A) -1 B) 6 C) 1 D) -6

28. $a^3-9a^2+27a-19$ ni ko'paytuvchilarga ajrating.
A) $(a+1)(a^2+8a-19)$
B) $(a-1)(a^2-8a+19)$
C) $(a-1)(a^2+8a-19)$
D) $(a+1)(a^2+8a+19)$

29. Agar $\sqrt{3x^2-6x+16}=2x-1$ bo'lsa, $x^2(4-x)$ ning qiymatini toping.
A) 65 B) 9 C) 54 D) -65

30. $x^2\le 2x+15$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari yig'indisini toping.
A) 9 B) 4 C) 5 D) 7

31. Arifmetik progressiyaning birinchi va to'rtinchi hadi yig'indisi 26 ga teng, ikkinchi hadi esa beshinchi hadidan 6 ga ko'p. Shu progressiyaning to'rtinchi va sakkizinchi hadi yig'indisini toping.
A) 10 B) 20 C) 12 D) 22

32. Agar $\log_3 4=a$ va $\log_5 4=b$ bo'lsa, $\log_4 135$ ni a va b orqali ifodalang.
A) $\frac{3a+b}{a+b}$ B) $\frac{a+2b}{ab}$ C) $\frac{a+3b}{a+b}$
D) $\frac{a+3b}{ab}$

33. Teng yonli trapetsiyaning asoslari 21 va 27 ga, kichik asosidagi burchagi esa 135° ga teng. Trapetsiyaning yuzini toping.
A) 62 B) 72 C) 48 D) 96

34. Muntazam to'rtburchakli kesik piramida asoslarining tomonlari 14 va 10 sm, diagonali $4\sqrt{22}$ sm. Kesik piramidaning balandligi necha sm?
A) 7 B) 6 C) 5 D) 8

35. Radiusi 15 ga teng bo'lgan sharga ichki chizilgan konusning balandligi 12 ga teng. Konusning hajmini toping
A) 486π B) 756π C) 864π D) 672π

36. Agar $sin(\alpha+\beta)=\frac{4}{5}$, $sin(\alpha-\beta)=\frac{5}{13}$ va $0<\beta<\alpha<\frac{\pi}{4}$ bo'lsa, $cos\alpha+cos\beta$ ning qiymatini hisoblang.
A) $\frac{10}{\sqrt{130}}$ B) $\sqrt{\frac{20}{13}}$ C) $\frac{5}{\sqrt{130}}$ D) $\sqrt{\frac{40}{13}}$

Matematika

1. $-1\frac{3}{4} \cdot 6,5 \cdot (-\frac{4}{7}) - 9,25$ ni hisoblang.
A) $-10,25$ B) $-2,75$ C) $3,75$ D) $2,75$

2. $a(b-c) - b(c-a) - c(a-b)$ ni soddalashtiring.
A) $2ab - 2ac$ B) $-2ac$ C) $2ab - 2bc$
D) 0

3. Quyidagi nuqtalarning qaysi biri $f(x) = -2x + 7$ funksiyaning grafigiga tegishli?
A) $(2;1)$ B) $(1;2)$ C) $(2;4)$ D) $(3;1)$

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
1) $(x+a)\cdot(x-b) = x^2 + (a-b)x - ab$;
2) $(x-c)\cdot(x-d) = x^2 - (c+d)x + cd$;
3) $(x-e)\cdot(x+d) = x^2 + (e-d)x - ed$;
4) $5a^2 - 3b^2 - ((a^2 - 2ab - b^2) - (5a^2 - 2ab - b^2)) = 9a^2 - 3b^2$.
A) $2;3;4$ B) $1;2;4$ C) $1;2;3$ D) $1;3;4$

5. $\frac{a^2 - 5ab}{-25b^2 + a^2}$ kasrni qisqartiring.
A) $\frac{a}{a-5b}$ B) $\frac{a}{a+5b}$ C) $-\frac{a}{a-5b}$
D) $-\frac{a}{a+5b}$

6. $\begin{cases} x^2 + y^2 - xy = 1, \\ x + y = -2. \end{cases}$ $2xy = ?$
A) -1 B) 1 C) -3 D) 2

7. $f(x) = x^3 + 3x - 5$ funksiyaning $[-1;1]$ kesmadagi eng katta va eng kichik qiymatlari orasidagi ayirmani toping.
A) 6 B) -6 C) 8 D) -5

8. Aylananing kesishuvchi ikki vatari orasidagi burchaklardan biri $100°$ ga teng. Shu burchakka qo'shni bo'lgan burchaklarning yig'indisini toping.
A) $90°$ B) $100°$ C) $160°$ D) $200°$

9. $x^2 + y^2 - 4x - 6y - 3 = 0$ tenglama bilan berilgan aylananing radiusini toping.
A) 5 B) 3 C) 4 D) 6

10. Tekislikka tushirilgan og'ma va perpendikulyar orasidagi burchak $arcsin\frac{24}{25}$ ga teng. Og'maning uzunligi 75 ga teng. Perpendikulyarning uzunligini toping.
A) 72 B) $10\frac{1}{2}$ C) $21\frac{7}{8}$ D) 21

11. Quyidagi nuqtalardan qaysi biri Oxz tekislikda yotadi?
A) $(0;-7;0)$ B) $(-4;3;0)$ C) $(2;-4;6)$
D) $(2;0;-8)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
1) $cos(x+y) = cosx \cdot cosy - sinx \cdot siny$;
2) $cos^2\frac{x}{2} = \frac{1+cosx}{2}$;
3) $sinx - siny = -2cos\frac{x+y}{2}sin\frac{x-y}{2}$;
4) $tgx - tgy = \frac{sin(x-y)}{cosx \cdot cosy}$,
$x, y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$.
A) $2;3;4$ B) $1;2;4$ C) $1;2;3$ D) $1;3;4$

13. $\frac{0,8 \cdot 0,06 + 1,2 \cdot 0,06}{0,2^2 - 0,4^2}$ ni soddalashtiring.
A) 10 B) -10 C) -1 D) $-0,1$

14. Mahsulotning bahosi 30% ga oshirildi. Ma'lum vaqtdan keyin 20% ga arzonlashtirildi, shundan so'ng uning narxi 8944 so'm bo'ldi. Mahsulotning dastlabki bahosi necha so'm bo'lgan?
A) 8400 B) 8600 C) 9300 D) 8500

15. $\sqrt{12\sqrt[3]{18}} \cdot \sqrt[3]{96}$ ni hisoblang.
A) 18 B) 6 C) 12 D) 9

16. $\frac{3^9 \cdot 2^{19} + 15 \cdot 4^9 \cdot 9^4}{6^9 \cdot 2^{10} + 12^{10}} \cdot \left(\frac{3}{4}\right)^{-1}$ ni hisoblang.
A) 2 B) 1 C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{1}{3}$

17. Agar $a^2 - 6a + 10 + b^2 + 2b = 0$ bo'lsa, $(a+b)^3$ ning qiymatini toping.
A) 27 B) 64 C) 25 D) 8

18. Turist butun yo'lning 0,85 qismini o'tganda, ko'zlangan manzilgacha 9,66 km qolgani ma'lum bo'ldi. Butun yo'lning uzunligi necha km?
A) 44 B) 52 C) $64,4$ D) $36,6$

19. p ning nechta natural qiymatida $x^2 + px + 30 = 0$ tenglama haqiqiy ildizga ega emas?
A) 14 B) 10 C) 15 D) 7

20. Dastlabki yettita hadining yig'indisi -280 ga va hadlarining ayirmasi -2 ga teng bo'lgan arifmetik progressiyaning birinchi hadini toping.
A) -42 B) -32 C) -36 D) -34

21. $f(x) = \frac{\sqrt{3}}{3}x^3 - 1$ funksiyaning grafigiga $x_0 = \frac{1}{\sqrt{3}}$ nuqtada o'tkazilgan urinmaning OX o'qi bilan tashkil qilgan burchagini toping.
A) $30°$ B) $60°$ C) $120°$ D) $45°$

22. Bir burchagi 150° bo'lgan uchburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusi 2 ga teng. Uchburchak katta tomonining uzunligini toping.
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

23. a va b ning qanday qiymatlarida $ax + by = -4$ va $3x - 3y = 4$ to'g'ri chiziqlar ustma-ust tushadi?
A) $a = -3;\ b = 3$ B) $a = 3;\ b = -3$
C) $a = 3;\ b = -1$ D) $a = b = 3$

24. $cos2x \geq -\frac{1}{2}$ tengsizlikning $[0; 1,5\pi]$ kesmadagi yechimini toping.
A) $[0; \frac{\pi}{3}] \cup [\frac{2\pi}{3}; \frac{4\pi}{3}]$ B) $[\frac{\pi}{3}; \frac{2\pi}{3}]$
C) $[\frac{4\pi}{3}; 2\pi]$ D) $[0; \frac{\pi}{3}] \cup [\frac{2\pi}{3}; \pi]$

25. 1 dan 126 gacha bo'lgan sonlar orasida 2 ga ham, 7 ga ham bo'linmaydiganlari nechta?
A) 64 B) 54 C) 45 D) 50

26. Ikki sex 690 ta kir yuvish mashinasi ishlab chiqarishi kerak. Birinchi sex ishlab chiqargan mahsulotning $\frac{2}{9}$ qismi ikkinchi sex ishlab chiqargan mahsulotning 80% iga teng. Birinchi sex qancha mahsulot ishlab chiqargan?
A) 180 B) 150 C) 540 D) 240

27. Agar $(\sqrt{3}+2)a = 1$ va $(\sqrt{3}-2)b = -1$ bo'lsa, $(a+1)^{-1} - (b+1)^{-1}$ ning qiymatini hisoblang.
A) 0,5 B) $\frac{1}{\sqrt{3}}$ C) $\sqrt{3}$ D) $\frac{2}{\sqrt{3}}$

28. $\left(\frac{a^{\frac{3}{2}} + b^{\frac{3}{2}}}{(a^{\frac{1}{2}} + b^{\frac{1}{2}})^2} - \frac{a^{\frac{1}{2}}b^{\frac{1}{2}}}{a^{\frac{1}{2}} + b^{\frac{1}{2}}}\right) : (a-b)$ ning $a = 0,36$ va $b = 0,16$ bo'lgandagi qiymatini hisoblang.
A) $\frac{1}{5}$ B) $-\frac{1}{4}$ C) $-\frac{1}{5}$ D) $\frac{1}{125}$

29. $14 - \sqrt{x^2 - 3x + 6} = x^2 - 3x$ tenglama ildizlarining yig'indisini toping.
A) 6 B) 5 C) 3 D) 7

30. $\frac{(x^2+x+1)(x^2+5x+4)}{x^2+5x+6} \leq 0$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari nechta?
A) 4 B) 5 C) 2 D) 3

31. Arifmetik progressiyaning oltinchi hadi 10 ga, dastlabki 16 ta hadining yig'indisi 200 ga teng. Bu progressiyaning 9-hadini toping.
A) 14 B) 16 C) 13 D) 18

32. $a = 0,2^{-0,7} \cdot 0,3^{-0,6}$; $b = 0,8^{-1/3} \cdot 3^{0,4}$; $c = 1,2^{0,4} \cdot 1,1^{1,5}$ va $d = 2^{-0,7} \cdot 0,2^{0,1}$ sonlardan qaysi biri 1 dan kichik?
A) b B) a C) d D) c

33. Ikki tomoni yig'indisi 1,8 ga va ular orasidagi burchagi 150° ga teng bo'lgan uchburchaklar ichida yuzasi eng katta bo'lgan uchburchakning yuzini toping.
A) $\frac{4}{25}$ B) $\frac{9}{10}$ C) $\frac{81}{400}$ D) $\frac{81}{100}$

34. Teng yonli ABC uchburchakning $(AB = AC)$ A uchidan uchburchak tekisligiga uzunligi 32 ga teng bo'lgan AD perpendikulyar o'tkazildi. D nuqtadan BC tomongacha bo'lgan masofa 40 ga teng. ABC uchburchakning BC tomoniga o'tkazilgan balandligi qanchaga teng?
A) 12 B) 24 C) 20 D) 14

35. Yasovchisi 15 ga, asosining radiusi 9 ga teng bo'lgan konusga ichki chizilgan sharning radiusini toping.
A) 6 B) 4,5 C) $3\sqrt{2}$ D) $4,5\sqrt{3}$

36. $tg(\alpha+\beta) = 4$, $tg(\alpha-\beta) = -2$ bo'lsa, $tg2\beta$ ni hisoblang.
A) $\frac{2}{3}$ B) $-\frac{7}{6}$ C) $\frac{3}{2}$ D) $-\frac{6}{7}$

Matematika

1. Birinchi kuni ish normasining $\frac{1}{2}$ qismi bajarildi. Ikkinchi kuni birinchi kunda bajarilgan ishning $\frac{1}{6}$ qismicha ko'p ish bajarildi. Shu ikki kunda qancha ish normasi bajarildi?
A) $\frac{11}{12}$ B) 1 C) $1\frac{1}{6}$ D) $1\frac{1}{12}$

2. Agar $ab = 9$ va $3b = 8,1c$ bo'lsa, ac ni hisoblang.
A) $2\frac{5}{8}$ B) $3\frac{1}{3}$ C) $2\frac{1}{2}$ D) $2\frac{4}{9}$

3. Agar $f(x) = (3 + \frac{1}{x})(11 + 4x)$ bo'lsa, $f(-\frac{1}{2})$ ni toping.
A) -3 B) 9 C) -5 D) 15

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
1) $(x - c) \cdot (x - d) = x^2 + (c - d)x + cd$;
2) $(x - e) \cdot (x + d) = x^2 - (e - d)x - ed$;
3) $12x^2 + y^2 - (8x^2 - 5y^2 - (-10x^2 + (5x^2 - 6y^2))) = -x^2$;
4) $5a^2 - 3b^2 - ((a^2 - 2ab - b^2) - (5a^2 - 2ab - b^2)) = 9a^2 - 3b^2$.
A) 2; 3; 4 B) 1; 2; 4 C) 1; 2; 3 D) 1; 3; 4

5. $(1 - 3a)^2 - (1 + 3a)(3a - 1)$ ni soddalashtiring.
A) $-6a + 2$ B) $18a^2 - 6a$ C) $9a^2 - 3a$
D) $-3a + 2$

6. $\begin{cases} x + 3 = 0 \\ xy^2 = 12 \end{cases}$ tenglamalar sistemasining yechimini toping.
A) $(-3; -2)$ B) $(-3; 2)$
C) $(-3; -2), (-3; 2)$ D) $\emptyset$

7. $f(x) = -x + \frac{x^2}{2}$ funksiyaning $(6; 2)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $-\frac{x^2}{2} + \frac{x^3}{6} - 18$ B) $-\frac{x^2}{2} + \frac{x^3}{6} - 16$
C) $-\frac{x^2}{2} + \frac{x^3}{6} + 18$ D) $-\frac{x^2}{2} + \frac{x^3}{6} + 16$

8. Aylananing AB vatari o'zi ajratgan yoylardan birining ixtiyoriy nuqtasidan $40°$ li burchak ostida ko'rinadi. A va B nuqta chegarasi bo'lgan yoylar necha gradus?
A) *80° va 280°* B) *160° va 200°*
C) *110° va 250°* D) *100° va 260°*

9. Uchlari $A(3; -1)$ va $B(2; 4)$ nuqtada bo'lgan AB kesmaning o'rtasidagi nuqtaning koordinatalarini toping.
A) $(-2,5; 1,5)$ B) $(2,5; 1,5)$ C) $(2,5; 3)$
D) $(2,5; -1,5)$

10. Og'ma va tekislik orasidagi burchak $arccos0,28$ ga, og'maning tekislikdagi proyeksiyasi 21 ga teng. Perpendikulyarning uzunligini toping.
A) 36 B) $5\frac{22}{25}$ C) 72 D) $20\frac{4}{25}$

11. Agar kesmaning bir uchi $A(1; -5; 4)$, o'rtasi $C(4; -2; 3)$ nuqtada bo'lsa, ikkinchi uchining koordinatalari qanday bo'ladi?
A) $(7; -1; 2)$ B) $(6; 5; 3)$ C) $(5; 4; 6)$
D) $(7; 1; 2)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
1) $tg(x - y) = \frac{tgx - tgy}{1 + tgx \cdot tgy}$,
$x, y, x - y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$;
2) $sin^2\frac{x}{2} = \frac{1 - cosx}{2}$;
3) $sinx + siny = 2cos\frac{x + y}{2} sin\frac{x - y}{2}$;
4) $tgx - tgy = \frac{sin(x - y)}{cosx \cdot cosy}$,
$x, y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$.
A) 1; 2; 4 B) 2; 3; 4 C) 1; 3; 4 D) 1; 2; 3

13. $0,34 \cdot 0,00025$ ko'paytma quyidagi sonlardan qaysi biriga teng emas?
A) $850 \cdot 10^{-7}$ B) $8,5 \cdot 10^{-5}$ C) $8,5 \cdot 10^{-6}$
D) $85 \cdot 10^{-6}$

14. Go'sht qaynatilganda o'z vaznining 40% ini yo'qotadi. 25 kg go'sht qaynatilganda vazni necha kg kamayadi?
A) 11 B) 12 C) 10 D) 9,5

15. $\frac{19}{\sqrt{20} + 1} + 4 - 2\sqrt{5}$ ni soddalashtiring.
A) 3 B) 6 C) $4\sqrt{5} - 6$ D) $4\sqrt{5} - 7$

16. $\left(\frac{3}{7}\right)^{-1} + 0,3^{-3} + (-0,5)^{-2} \cdot \frac{3}{4} - 10\frac{19}{27}$ ni hisoblang.
A) $42\frac{4}{9}$ B) $31\frac{2}{3}$ C) $48\frac{10}{27}$ D) $34\frac{2}{3}$

17. $\frac{4,5^2 - 1,5^2}{0,3 \cdot 0,5 - 0,3}$ ni hisoblang.
A) -120 B) -200 C) -2 D) 200

18. n ning qanday qiymatida $n^2(y - 1) = 4y - 2n$ tenglamaning ildizi yo'q?
A) $n = 1$ B) $n = -2$ C) $n = 2$
D) $n = -1$

19. $2x^2 - 14x + c = 0$ tenglamaning ildizlaridan biri 0,5 ga teng. Shu tenglamaning ikkinchi ildizini toping.
A) 3 B) 4 C) 6,5 D) 0

20. (b_n) $(n \in N)$ geometrik progressiyada $q = 2$ va $S_4 = 3$. b_2 ni toping.
A) 0,8 B) 0,4 C) $\frac{2}{3}$ D) $1\frac{1}{3}$

21. Qaysi nuqtada $y = x^2 + 2x - 8$ funksiyaning grafigiga o'tkazilgan urinma $y + 2x - 8 = 0$ to'g'ri chiziqqa parallel bo'ladi?
A) $(2;8)$ B) $(-2;8)$ C) $(2;-8)$
D) $(-2;-8)$

22. To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi 75 sm, katetlari esa o'zaro 7:24 nisbatda. Shu uchburchakning katta katetini toping.
A) 36 B) 63 C) 42 D) 72

23. ABCD parallelogramm C uchining koordinatalari (5; 8), O(3; 6) esa parallelogramm diagonallarining kesishish nuqtasi. Parallelogramm A uchining koordinatalarini toping.
A) (3;2) B) (2;3) C) (4;1) D) (1;4)

24. $cos^2\frac{x}{4} > \frac{\sqrt{2}}{2} + sin^2\frac{x}{4}$ tengsizlikni yeching.
A) $\frac{\pi}{8} + \pi n < x < \frac{7\pi}{8} + \pi n,\ n \in Z$
B) $\frac{\pi}{8} + 2\pi n < x < \frac{7\pi}{8} + 2\pi n,\ n \in Z$
C) $\frac{\pi}{4} + 2\pi n < x < \frac{7\pi}{4} + 2\pi n,\ n \in Z$
D) $-\frac{\pi}{2} + 4\pi n < x < \frac{\pi}{2} + 4\pi n,\ n \in Z$

25. Tomoni 1000 dm ga teng bo'lgan kvadrat tomoni 5 sm ga teng bo'lgan kvadratchalarga ajratildi. Shu kvadratchalar kengligi 10 sm bo'lgan tasma shaklida joylashtirilsa, uning uzunligi qancha bo'ladi?
A) 200 km B) 100 km C) 1 km
D) 20 km

26. Yil boshida o'g'il bolalar sinfdagi o'quvchilarning 30% ini, qizlar esa 21 nafarni tashkil etardi. Yilning o'rtasida sinfga 6 ta yangi o'g'il bola keldi va 11 ta qiz boshqa sinfga o'tdi. Shundan so'ng o'g'il bolalar sinfdagi o'quvchilarning necha foizini tashkil etadi?
A) 50 B) 70 C) 60 D) 55

27. Agar $a(x-1)^2 + b(x-1) + c = 2x^2 - 5x + 8$ ayniyat bo'lsa, $a + b + c$ yig'indi nechaga teng bo'ladi?
A) 8 B) 7 C) 4 D) 6

28. $\frac{2,72^4 - 0,72^4}{3,44^2 - 2,72 \cdot 1,44}$ ni hisoblang.
A) 6,88 B) 5,68 C) 6,84 D) 5,28

29. Agar $y - x = 2$ va $a > 0$ bo'lsa, $\begin{cases} y^2 - x^2 = 6a \\ y + x = 1,5a^2 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.
A) (7;9) B) (5;7) C) (2;4) D) (4;6)

30. $a > c > b > 0$ bo'lsa, $\frac{1}{a}$, $\frac{1}{a+b}$ va $\frac{1}{a+c}$ larni taqqoslang.
A) $\frac{1}{a} < \frac{1}{a+b} < \frac{1}{a+c}$ B) $\frac{1}{a} < \frac{1}{a+c} < \frac{1}{a+b}$
C) $\frac{1}{a+c} < \frac{1}{a+b} < \frac{1}{a}$ D) $\frac{1}{a+b} < \frac{1}{a+c} < \frac{1}{a}$

31. Ikkinchi hadi 6 ga teng, birinchi uchta hadining yig'indisi 26 ga teng o'suvchi geometrik progressiyaning to'rtinchi va ikkinchi hadlari ayirmasini toping.
A) 16 B) 32 C) 48 D) 36

32. $(x^2 - 12x + 32)\sqrt{\log_3(x-5)} \le 0$ tengsizlikni yeching.
A) [6; 8] B) (4; 8] C) (7; 8) D) [7; 8)

33. Teng yonli trapetsiyaning asoslari 8 va 26 ga, yon tomoni esa 15 ga teng. Trapetsiyaning yuzini hisoblang.
A) 102 B) 184 C) 255 D) 204

34. Uchburchakli muntazam prizmaning balandligi 32 ga, asosining yuzi $\frac{9\sqrt{3}}{16}$ ga teng. Prizma yon yog'ining yuzini toping.
A) 54 B) 48 C) 42 D) 36

35. Balandligi 9 ga, yasovchisi 15 ga teng konusga ichki chizilgan sharning sirtining yuzini toping.
A) 72π B) 56π C) 48π D) 64π

36. $cos(2arccos\frac{4}{9})$ ning qiymatini toping.
A) $\frac{49}{81}$ B) $\frac{8}{9}$ C) $-\frac{49}{81}$ D) $-\frac{8}{9}$

Matematika

1. $\left(3,5-3\frac{1}{3}\right)\cdot 10,4 : 5\frac{1}{5}$ ni hisoblang.

   A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{2}{5}$ C) $\frac{3}{7}$ D) $\frac{1}{12}$

2. $\sqrt{a-2a^{1/2}b^{1/2}+b}-\frac{a-b}{a^{1/2}-b^{1/2}}$
   ni soddalashtiring $(b>a>0)$.

   A) $-2a^{1/2}$ B) $2a^{1/2}-2b^{1/2}$ C) 0
   D) $-2b^{1/2}$

3. Quyidagilardan qaysilari o'suvchi funksiyalar?
   1) $y=3^{-x}$; 2) $y=(\sqrt[4]{10})^x$; 3) $y=(\frac{11}{9})^x$;
   4) $y=(\frac{5}{3})^x$; 5) $y=(0,84)^x$.

   A) 1; 2; 3 B) 1; 2; 4 C) 2; 3; 4
   D) 3; 4; 5

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
   1) $(x-c)\cdot(x-d)=x^2+(c-d)x+cd$;
   2) $(x-e)\cdot(x+d)=x^2-(e-d)x-ed$;
   3) $6ab+(2a^3+b^3-(3ab^2-(a^3+2ab^2-b^3)))=3a^3-ab^2+6ab$;
   4) $5a^2-3b^2-((a^2-2ab-b^2)-(5a^2-2ab-b^2))=9a^2-3b^2$.

   A) 1;2;4 B) 1;3;4 C) 2;3;4 D) 1;2;3

5. 1) $2a^2-4ab+2b^2=(b-a)^2\cdot 2$
   2) $-\frac{x^3-y^3}{x^2+xy+y^2}=x-y$
   3) $-(a-b-c)=-a+b+c$
   4) $-\frac{a^2-1}{b}=\frac{a^2-1}{b}$. Ushbu tengliklarning qaysi biri ayniyat?

   A) 2; 4 B) 1 C) 1; 3 D) 2

6. $\begin{cases} x+y=3 \\ x^2-y^2=-6, \end{cases}$ $y-?$

   A) 2,5 B) 0,5 C) 1 D) 3

7. $F(x)=-3ctgx-2x+C$ funksiya quyidagi funksiyalardan qaysi birining boshlang'ich funksiyasi bo'ladi?

   A) $f(x)=\frac{3}{cos^2x}-2$ B) $f(x)=-\frac{3}{sin^2x}+2$
   C) $f(x)=-\frac{3}{cos^2x}+2$ D) $f(x)=\frac{3}{sin^2x}-2$

8. Qo'shni burchaklardan biri ikinchisidan besh marta kichik bo'lsa, shu burchaklardan kattasini toping.

   A) 130° B) 150° C) 144° D) 140°

9. $\vec{a}(2;-3)$ va $\vec{b}(-2;-3)$ vektorlar berilgan. $\vec{m}=\vec{a}-2\vec{b}$ vektorning koordinatalarini ko'rsating.

   A) $(-3;6)$ B) $(6;3)$ C) $(2;-3)$
   D) $(-2;-9)$

10. Tekislikka tushirilgan og'maning uzunligi 75 ga, uning tekislikdagi proyeksiyasi esa 60 ga teng. Og'ma va tekislik orasidagi burchakni toping.

    A) $arcsin\frac{3}{5}$ B) $arccos\frac{3}{10}$ C) $arcsin\frac{3}{4}$
    D) $arcsin\frac{4}{5}$

11. Oxy tekisligiga nisbatan (1;2;3) nuqtaga simmetrik bo'lgan nuqtani toping.

    A) $(-1;-2;3)$ B) $(-1;2;3)$ C) $(1;-2;3)$
    D) $(1;2;-3)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
    1) $tg(x+y)=\frac{tgx+tgy}{1-tgx\cdot tgy}$,
    $x,y,x+y\neq\frac{\pi}{2}+\pi n, n\in Z$;
    2) $sin^2\frac{x}{2}=\frac{1+cosx}{2}$;
    3) $sinx+siny=2sin\frac{x+y}{2}cos\frac{x-y}{2}$;
    4) $tgx+tgy=\frac{sin(x+y)}{cosx\cdot cosy}$,
    $x,y\neq\frac{\pi}{2}+\pi n, n\in Z$.

    A) 2;3;4 B) 1;3;4 C) 1;2;3 D) 1;2;4

13. Uchta sonning o'rta arifmetigi 13,9 ga teng. Agar sonlarning ikkitasi 20,2 va 21,7 bo'lsa, uchinchi sonni toping.

    A) $-0,2$ B) 12,1 C) 13 D) $-8,4$

14. 32 dan 62,4 necha foiz ortiq?

    A) 95 B) 90 C) 85 D) 89,5

15. $\frac{1-x^2}{1+x^2}\cdot(\frac{1}{(x-1)^2}-\frac{x}{1-x^2})$ ni soddalashtiring.

    A) -1 B) $\frac{1}{1-x}$ C) $\frac{1}{x-1}$ D) $\frac{x+1}{1-x}$

16. $3^{10}+2^{11}$ yig'indining oxirgi raqamini toping.

    A) 3 B) 5 C) 1 D) 7

17. $\frac{0,4^2-1}{2,8\cdot 0,4-2,8}$ ni hisoblang.

    A) $-\frac{1}{2}$ B) $\frac{1}{2}$ C) 5 D) -5

18. m ning qanday qiymatlarida $m(mx-1)=16x+4$ tenglama cheksiz ko'p ildizga ega?

    A) $m=3$ B) $m=0$ C) $m=-1$
    D) $m=-4$

19. $y^2 - ty + \frac{1}{2}t + 2 = 0$ tenglama teng ildizlarga ega bo'ladigan t ning barcha qiymatlari yig'indisini toping.
A) 1,5 B) 1 C) 2 D) -1

20. $-\frac{1}{4}; -\frac{5}{24}; \ldots$ arifmetik progressiyaning nechta hadi manfiy?
A) 6 B) 8 C) 7 D) 5

21. $f(x) = \sqrt{3} \cdot sinx + cos\frac{\pi}{3} - \frac{9x^2}{2\pi}$. $f'(\frac{\pi}{6}) = ?$
A) 0,5 B) $\sqrt{3}$ C) 0 D) $\frac{\sqrt{3}}{2}$

22. ΔABC da $\angle B = 90°, \angle C = 60°$. BB_1 balandlik 3 ga teng. AB ni toping.
A) 12 B) 6 C) $6\sqrt{2}$ D) $6\sqrt{3}$

23. Qavariq to'rtburchakning burchaklaridan biri to'g'ri burchak, qolganlari esa o'zaro 6 : 5 : 4 nisbatda. To'rtburchakning kichik burchagini toping.
A) 108° B) 60° C) 72° D) 90°

24. $ctg(\frac{\pi}{2} - 3x) = tg2x + tgx$ tenglamani yeching.
A) $\frac{\pi n}{3}$, $n \in Z$ B) $\frac{\pi n}{2}$, $n \in Z$
C) $\frac{\pi n}{2}; \pi n$, $n \in Z$ D) πn, $n \in Z$

25. 1 dan 120 gacha bo'lgan sonlar orasida 3 ga ham, 5 ga ham bo'linmaydiganlari nechta?
A) 64 B) 56 C) 61 D) 60

26. Sexda 120 ta samovar va 25 ta patnis yasalgan. Sarf qilingan hamma materialning 0,96 qismi samovarga ketgan. Agar har bir samovarning og'irligi 3,6 kg dan bo'lsa, har bir patnis necha kg bo'lgan?
A) 0,04 B) 0,8 C) 0,9 D) 0,72

27. n ning nechta butun qiymatida $\frac{n^2 - 5n - 2}{n + 1}$ kasr butun son bo'ladi?
A) 2 B) 6 C) 4 D) 3

28. $\sqrt{11 + 6\sqrt{2}} - \sqrt{11 - 6\sqrt{2}}$ ni hisoblang.
A) 22 B) 6 C) $3\sqrt{2}$ D) $\sqrt{8}$

29. Agar $\begin{cases} x + y - \sqrt{xy} = 13 \\ x^2 + y^2 + xy = 481 \end{cases}$ bo'lsa, $\sqrt{xy}$ ning qiymatini toping.
A) 42 B) 36 C) 52 D) 12

30. $\sqrt{x + 6} > x + 4$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi butun sonlar nechta?
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4

31. Olti haddan iborat geometrik progressiyaning dastlabki uchta hadining yig'indisi 168 ga, keyingi uchtasiniki esa 21 ga teng. Shu progressiyaning birinchi hadini toping.
A) 96 B) 86 C) 126 D) $\frac{1}{2}$

32. $log_2 log_{\frac{1}{2}} log_8 x > 0$ tengsizlikni yeching.
A) $(-\infty; 0) \bigcup (0; 2)$ B) $(1; 2)$ C) $(-\infty\ 2)$ D) $(0; 2)$

33. Aylanaga ichki chizilgan muntazam olti burchakning tomoni 12 ga teng. Shu aylanaga kvadrat ham ichki chizilgan. Kvadratga ichki chizilgan doiraning yuzini toping.
A) 90π B) 72π C) 36π D) 48π

34. Muntazam to'rtburchakli piramidaning yon qirrasi $6\sqrt{2}$ ga, yon qirra va asos tekisligi orasidagi burchak 45° ga teng. Piramidaning hajmini toping.
A) 144 B) $96\sqrt{2}$ C) 192 D) 72

35. Balandligi $\sqrt{3}$ ga, yasovchisi $2\sqrt{3}$ ga teng bo'lgan konusga tashqi chizilgan sharning radiusini toping.
A) 2 B) $2\sqrt{3}$ C) $3\sqrt{3}$ D) $3\sqrt{2}$

36. $sin(2arctg\frac{7}{24})$ ni hicoblang.
A) $\frac{336}{625}$ B) $\frac{226}{625}$ C) $\frac{326}{625}$ D) $\frac{236}{625}$

Matematika

1. Bir kombaynchi bug'doyzorning $\frac{2}{9}$ qismidagi bug'doyni, ikkinchisi $\frac{4}{9}$ qismidagi bug'doyni o'rib oldi. Bug'doyzorning qancha qismi o'rilmay qoldi?
A) $\frac{1}{9}$ B) $\frac{2}{9}$ C) $\frac{4}{9}$ D) $\frac{1}{3}$

2. $\frac{\sqrt{32}+\sqrt{98}-\sqrt{50}}{\sqrt{72}} : \frac{1}{\sqrt{2}}$ ni hisoblang.
A) 1 B) 2 C) $2\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$

3. Quyidagi nuqtalarning qaysi biri $f(x) = -2x + 9$ funksiyaning grafigiga tegishli?
A) $(2;5)$ B) $(-1;1)$ C) $(1;-1)$
D) $(-5;2)$

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
1) $(x-e)\cdot(x+d) = x^2+(e-d)x-ed$;
2) $12x^2+y^2-(8x^2-5y^2-(-10x^2+(5x^2-6y^2))) = -x^2$;
3) $5a^2-3b^2-((a^2-2ab-b^2)-(5a^2-2ab-b^2)) = 9a^2-3b^2$;
4) $3a-(2c-(6a-(c-b)+c+(a+8b)-6c)) = 10a+9b-8c$.
A) 1;3;4 B) 2;3;4 C) 1;2;3 D) 1;2;4

5. $(3a-b)^2+(3a+b)^2$ ni soddalashtiring.
A) $-2b^2$ B) $2b^2+18a^2$ C) $-6ab+2b^2$
D) $-12ab$

6. $\begin{cases} y+2=0 \\ x^2y=18 \end{cases}$ tenglamalar sistemasining yechimini toping.
A) $(-3;\ 2)$ B) $(-3;\ -2)$ C) $\emptyset$
D) $(-3;\ -2)$, $(3;\ -2)$

7. $f(x) = x^3$ funksiyaning $(2;\ 3)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{x^2}{2}+1$ B) $\frac{x^4}{4}-1$ C) $\frac{x^4}{2}+3$
D) $\frac{x^4}{4}-3$

8. Aylananing MN vatari 120° li yoyni tortib turadi. MN vatar o'zi tortib turgan kichik yoyning ixtiyoriy nuqtasidan qanday burchak ostida ko'rinadi?
A) 120° B) 270° C) 110° D) 100°

9. $x^2+y^2+4x-6y-3=0$ tenglama bilan berilgan aylananing markazini toping.
A) $(2;-3)$ B) $(-2;3)$ C) $(-4;6)$
D) $(4;-3)$

10. Tekislikka og'ma va perpendikulyar tushirilgan. Og'maning tekislikdagi proyeksiyasi 21 ga, perpendikulyarning uzunligi 20 ga teng. Og'ma va perpendikulyar orasidagi burchakni toping.
A) $arccos\frac{20}{21}$ B) $arcsin\frac{21}{29}$ C) $arcsin\frac{20}{21}$
D) $arctg\frac{20}{29}$

11. Quyidagi nuqtalardan qaysi biri Oyz tekislikda yotadi?
A) $(2;0;-5)$ B) $(2;-3;0)$ C) $(0;9;-7)$
D) $(1;0;-4)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
1) $cos(x-y) = cosx\cdot cosy + sinx\cdot siny$;
2) $tg(x-y) = \frac{tgx-tgy}{1+tgx\cdot tgy}$,
$x, y, x-y \neq \frac{\pi}{2}+\pi n, n\in Z$;
3) $sin^2\frac{x}{2} = \frac{1+cosx}{2}$;
4) $tgx+tgy = \frac{sin(x+y)}{cosx\cdot cosy}$,
$x, y \neq \frac{\pi}{2}+\pi n, n\in Z$.
A) 1;3;4 B) 1;2;4 C) 2;3;4 D) 1;2;3

13. Quyidagi oddiy kasr ko'rinishida berilgan sonlardan qaysilarini chekli o'nli kasr ko'rinishiga keltirib bo'lmaydi:
1) $\frac{10}{65}$; 2) $\frac{7}{40}$; 3) $\frac{15}{85}$; 4) $\frac{18}{250}$?
A) *2; 3* B) *1; 2* C) *1; 3* D) *3; 4*

14. Mahsulotning narxi ketma-ket ikki marta 20% dan oshirildi. Keyinchalik bu mahsulotga talabning kamligi tufayli uning narxi 40% ga kamaytirildi. Mahsulotning keyingi bahosi dastlabki bahosiga qaraganda qanday o'zgargan?
A) 1,2% *ga ortgan* B) *o'zgarmagan*
C) 8,64% *ga kamaygan*
D) 13,6% *ga kamaygan*

15. $\frac{a^2+ab+b^2}{a^3-b^3}+\frac{a^2-ab+b^2}{a^3+b^3}$ ni soddalashtiring.
A) $\frac{2a}{a^2-b^2}$ B) $\frac{2b}{b^2-a^2}$ C) $\frac{2a}{b^2-a^2}$
D) $\frac{2b}{a^2-b^2}$

16. n ning qanday eng kichik natural qiymatida $2^{n-3}+1$ soni 33 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) 8 B) 7 C) 4 D) 6

17. $\frac{(32-16a^{\frac{1}{4}})\cdot(2a^{\frac{1}{4}}+a^{\frac{1}{2}})}{8a^{\frac{1}{4}}-2a^{\frac{3}{4}}}$ kasrni qisqartiring.
A) 4 B) 15 C) 8 D) 7,5

18. Velosipedchi butun yo'lning 0,6 qismini o'tgach, qolgan yo'l, u bosib o'tgan yo'ldan 8 km ga kamligi ma'lum bo'ldi. Butun yo'lning uzunligini (km) toping.
A) 24 B) 40 C) 36,6 D) 20

19. Agar y_1 va y_2 $y^2 - by + 2b - 3 = 0$ tenglamaning ildizlari bo'lsa, b ning qanday qiymatida $y_1^2 + y_2^2$ ifodaning qiymati eng kichik bo'ladi?
A) 2 B) 1,2 C) 1,5 D) 1

20. Geometrik progressiyaning maxraji 3 ga, dastlabki to'rtta hadlari yig'indisi 40 ga teng. Uning to'rtinchi hadini toping.
A) 32 B) 24 C) 27 D) 54

21. $y = 3x^4 - 4x^3 + 1$ funksiyaning $[0; 2]$ kesmadagi eng kichik qiymatini toping.
A) -16 B) 0 C) 1 D) -1

22. To'g'ri burchakli uchburchakning bir kateti $4\sqrt{3}$ ga, bu katet qarshisidagi burchak 60^0 ga teng. Ikkinchi katetni toping.
A) 4 B) $2\sqrt{3}$ C) $\sqrt{2}$ D) $\frac{4\sqrt{3}}{3}$

23. Bir uchi $(8; 2)$ nuqtada, o'rtasi $(4,5; -5,5)$ nuqtada bo'lgan kesmaning ikkinchi uchi koordinatalarini toping.
A) $(0; -24)$ B) $(1; -13)$ C) $(0; 26)$
D) $(0; -26)$

24. $\sin^4 x - \cos^4 x = \frac{1}{2}$ tenglama $[-2\pi; 2\pi]$ kesmada nechta ildizga ega?
A) 9 B) 8 C) 7 D) 10

25. 36455472363 ni 2, 4, 5, 9, 10 va 25 ga bo'lganda hosil bo'lgan qoldiqlar yig'indisini toping.
A) 16 B) 26 C) 14 D) 15

26. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish birinchi yili 18% ga, ikkinchi yili 15% ga ortdi. Mahsulot ishlab chiqarish ikki yil mobaynida necha foizga ortgan?
A) 34,7 B) 35,7 C) 33 D) 35

27. Agar $\sqrt{t^5 + 3} - \sqrt{t^5 - 2} = 2$ bo'lsa, $\sqrt{t^5 + 3} + \sqrt{t^5 - 2}$ ning qiymati nechaga teng bo'ladi?
A) 3,5 B) 2 C) 2,5 D) 1

28. $\sqrt{\frac{9 + \sqrt{65}}{2}} + \sqrt{\frac{9 - \sqrt{65}}{2}}$ ni hisoblang.
A) $9 - \sqrt{10}$ B) $\sqrt{13}$ C) $7 - \sqrt{2}$ D) $\sqrt{5}$

29. Ikki xonali son o'zining raqamlari yig'indisidan 4 marta katta. Raqamlari kvadratlarining yig'indisi 80 ga teng. Shu ikki xonali sonning kvadratini hisoblang.
A) 196 B) 7056 C) 169 D) 2304

30. $|3 - x| \leq 4$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari nechta?
A) 9 B) 4 C) 7 D) 8

31. Geometrik progressiyaning oltinchi va birinchi hadi ayirmasi 1210 ga, maxraji 3 ga teng. Shu progressiyaning dastlabki oltita hadi yig'indisini toping.
A) 1720 B) 1820 C) 605 D) 1520

32. $4^{log_2 x} + x^2 < 50$ tengsizlikning barcha butun sonlardan iborat yechimlari yig'indisini toping.
A) 10 B) 6 C) 7 D) 15

33. Kichik diagonali $24\sqrt{3}$ bo'lgan muntazam oltiburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusini toping.
A) $12\sqrt{3}$ B) $24\sqrt{3}$ C) 24 D) 12

34. Muntazam to'rtburchakli kesik piramida asoslarining tomonlari 4 va 8 sm, diagonali 12 sm. Kesik piramidaning balandligi necha sm?
A) $6\sqrt{2}$ B) 3 C) 4,5 D) $8\sqrt{2}$

35. Konusning yasovchisi 20 ga, asosining diametri 24 ga teng. Unga ichki chizilgan shar sirtining yuzini toping.
A) 156π B) 169π C) 289π D) 144π

36. $2sin43^\circ cos17^\circ + 2sin^2 32^\circ - 1$ ni hisoblang.
A) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ B) $\frac{1}{2}$ C) 1 D) $\frac{\sqrt{3}}{2}$

Matematika

1. G'ildirak $6\frac{2}{9}$ minutda $11\frac{1}{5}$ marta aylanadi. U 1 minutda necha marta aylanadi?
A) 1 B) $1\frac{4}{5}$ C) $1\frac{2}{5}$ D) $1\frac{3}{5}$

2. $a(b+c-bc)-b(c+a-ac)-c(b+a)$ ni soddalashtiring.
A) $2ac-2bc$ B) $-2abc$ C) $ab-ac$ D) $-2bc$

3. Agar $f(x)=(2x-\frac{1}{3})(4x+\frac{1}{4})$ bo'lsa, $f(\frac{1}{2})$ ni toping.
A) $\frac{7}{12}$ B) $-4,5$ C) $1,5$ D) $4,5$

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
1) $(x+a)\cdot(x-b)=x^2+(a-b)x-ab$;
2) $(x-c)\cdot(x-d)=x^2-(c+d)x+cd$;
3) $(x-e)\cdot(x+d)=x^2+(e-d)x-ed$;
4) $5a^2-3b^2-((a^2-2ab-b^2)-(5a^2-2ab-b^2))=9a^2-3b^2$.
A) 2;3;4 B) 1;2;4 C) 1;2;3 D) 1;3;4

5. $\frac{0,4^2+2\cdot0,04+0,1^2}{0,5-0,5^2}$ ning qiymatini hisoblang.
A) -1 B) 1 C) 10 D) $-0,1$

6. $\begin{cases}x+y=6,\\x^2-y^2=12.\end{cases}$ $y-?$
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1

7. $f(x)=x^3$ funksiyaning (2; 3) nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{x^2}{2}+1$ B) $\frac{x^4}{4}-1$ C) $\frac{x^4}{2}+3$ D) $\frac{x^4}{4}-3$

8. Aylananing MN vatari 120° li yoyni tortib turadi. MN vatar o'zi tortib turgan kichik yoyning ixtiyoriy nuqtasidan qanday burchak ostida ko'rinadi?
A) 120° B) 270° C) 110° D) 100°

9. $P(3;0)$ nuqtani koordinata boshi atrofida 90° ga burganda u qaysi nuqtaga o'tadi?
A) $(0;-3)$ B) $(-3;0)$ C) $(0;3)$ D) $(3;3)$

10. Tekislikka tushirilgan og'maning uzunligi 125 ga, uning tekislikdagi proyeksiyasi esa 35 ga teng. Og'ma va tekislik orasidagi burchakni toping.
A) $arccos\frac{12}{25}$ B) $arcsin\frac{24}{25}$ C) $arctg\frac{7}{48}$ D) $arcsin\frac{7}{25}$

11. Quyidagi nuqtalardan qaysi biri Oxz tekislikda yotadi?
A) $(0;-7;0)$ B) $(-4;3;0)$ C) $(2;-4;6)$ D) $(2;0;-8)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
1) $sin(x+y)=sinx\cdot cosy+cosx\cdot siny$;
2) $tg(x+y)=\frac{tgx-tgy}{1+tgx\cdot tgy}$, $x,y,x+y\neq\frac{\pi}{2}+\pi n, n\in Z$;
3) $sin^2\frac{x}{2}=\frac{1-cosx}{2}$;
4) $sinx+siny=2sin\frac{x+y}{2}cos\frac{x-y}{2}$.
A) 1;3;4 B) 2;3;4 C) 1;2;4 D) 1;2;3

13. $25\frac{1}{2}$ sonini 6;7;4 sonlariga mutanosib bo'laklarga bo'lgandagi eng kichik sonni toping.
A) 4 B) 3 C) 6 D) 5

14. 14% ga arzonlashtirilgandan keyin mahsulotning bahosi 2150 so'm bo'ldi. Mahsulotning dastlabki bahosini aniqlang.
A) 2500 B) 2250 C) 3000 D) 2750

15. $\frac{n^2-8n+7}{n^2-1}$ ni qisqartiring.
A) $\frac{n-7}{n+1}$ B) $\frac{n-7}{n-1}$ C) $\frac{n-7}{n-1}$ D) $\frac{n+7}{n+1}$

16. Agar $a=3$, $b=5$ bo'lsa, $\sqrt[3]{a^b+b^a-152}$ ni hisoblang.
A) $\sqrt[3]{200}$ B) $\sqrt[3]{150}$ C) 6 D) 5

17. Amallarni bajaring:
$\frac{9}{5-\sqrt{7}}-\frac{22}{7+\sqrt{5}}+\frac{1}{\sqrt{7}+\sqrt{5}}$.
A) 6 B) $\sqrt{7}-1$ C) 5 D) $\sqrt{7}-\sqrt{5}$

18. $\begin{cases}ax+by=6\\bx+ay=4\end{cases}$ tenglamalar sistemasi $x=3$, $y=2$ yechimga ega bo'lsa, a ning qiymatini toping.
A) 5 B) 4 C) 2 D) 3

19. Agar $x-\sqrt{x+3}-27=0$ bo'lsa, $\sqrt{x+3}$ ning qiymatini hisoblang.
A) 4 B) 5 C) 7 D) 6

20. Arifmetik progressiyaning o'n uchinchi hadi 3 ga teng. Uning dastlabki 25 ta hadi yig'indisini toping.
A) 100 B) 125 C) 225 D) 75

21. $f(x)=0,5x^2-x-1,5$ funksiya grafigining abssissasi 2 ga teng bo'lgan nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning burchak koeffitsiyentini toping.
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

22. Uchburchakning tomonlari 4; 5 va 6 ga teng. 5 ga teng bo'lgan tomon qarshisidagi burchakning kosinusini toping.
A) $\frac{9}{16}$ B) $\frac{7}{16}$ C) $\frac{1}{8}$ D) $\frac{7}{8}$

23. Qavariq to'rtburchakning burchaklaridan biri to'g'ri burchak, qolganlari esa o'zaro $6:5:4$ nisbatda. To'rtburchakning kichik burchagini toping.
A) $108°$ B) $60°$ C) $72°$ D) $90°$

24. $4cos^2 2x - 2,5 = cos4x$ tenglamani yeching.
A) $\pm\frac{\pi}{12} + \frac{\pi n}{2}, n \in Z$ B) $\frac{\pi}{4} + \frac{n\pi}{2}, n \in Z$
C) $\frac{\pi}{3} + \frac{n\pi}{2}, n \in Z$ D) $\frac{\pi}{6} + \frac{n\pi}{2}, n \in Z$

25. 55 dan katta bo'lmagan barcha natural sonlarning ko'paytmasi nechta nol bilan tugaydi?
A) 12 B) 14 C) 11 D) 13

26. Ikki sex 690 ta kir yuvish mashinasi ishlab chiqarishi kerak. Birinchi sex ishlab chiqargan mahsulotning $\frac{2}{9}$ qismi ikkinchi sex ishlab chiqargan mahsulotning 80% iga teng. Birinchi sex qancha mahsulot ishlab chiqargan?
A) 180 B) 150 C) 540 D) 240

27. $\frac{x^3+1}{x^4+x^2+1}$ kasrni qisqartiring.
A) $\frac{x}{x+2}$ B) $\frac{x-1}{x^2-x+1}$ C) $\frac{x-2}{x^2-x-1}$
D) $\frac{x+1}{x^2+x+1}$

28. $\frac{\sqrt{3+2\sqrt{2}}+\sqrt{3-2\sqrt{2}}+\sqrt{2}}{4\sqrt{2}}$ ni hisoblang.
A) 0,5 B) $\frac{\sqrt{2}}{4}$ C) 0,75 D) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

29. $(x-2)x(x-3)(x+1) = 40$ tenglama haqiqiy ildizlarining yig'indisini toping.
A) 2 B) 5 C) -4 D) -1

30. $\frac{(-x^2+x-1)(x^2-3x+2)}{x^2-7x+12} \geq 0$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari nechta?
A) 1 B) 4 C) 3 D) 2

31. Arifmetik progressiyaning birinchi va to'rtinchi hadi yig'indisi 26 ga teng, ikkinchi hadi esa beshinchi hadidan 6 ga ko'p. Shu progressiyaning to'rtinchi va sakkizinchi hadi yig'indisini toping.
A) 10 B) 20 C) 12 D) 22

32. $x^{\log_2 x+2} < 8$ tengsizlikni yeching.
A) $(2^{-2}; 2)$ B) $(2^{-5}; 2)$ C) $(2^{-4}; 2)$
D) $(2^{-3}; 2)$

33. Teng yonli trapetsiyaning asoslari 10 va 18 ga, asosidagi burchagi $60°$ ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini hisoblang.
A) $56\sqrt{3}$ B) $36\sqrt{3}$ C) $28\sqrt{3}$ D) $46\sqrt{3}$

34. Teng yonli ABC uchburchakning $(AB = AC)$ A uchidan uchburchak tekisligiga uzunligi 32 ga teng bo'lgan AD perpendikulyar o'tkazildi. D nuqtadan BC tomongacha bo'lgan masofa 40 ga teng. ABC uchburchakning BC tomoniga o'tkazilgan balandligi qanchaga teng?
A) 12 B) 24 C) 20 D) 14

35. Radiusi 15 ga teng bo'lgan sharga ichki chizilgan konusning balandligi 12 ga teng. Konusning hajmini toping.
A) 486π B) 756π C) 864π D) 672π

36. $tg(arccos\frac{4}{5} - arcsin\frac{7}{25})$ ni hisoblang.
A) $\frac{44}{75}$ B) $\frac{44}{117}$ C) $\frac{100}{117}$ D) $\frac{4}{3}$

Matematika

1. $(2\frac{17}{36} - 4\frac{7}{12}) : \frac{2}{9} - \frac{3}{26} \cdot 4\frac{1}{3}$ ni hisoblang.
   A) $8\frac{1}{2}$ B) 9 C) -10 D) 9

2. $\frac{x^3-8}{x^2+2x+4} - \frac{x^3+8}{x^2-2x+4}$ ni soddalashtiring.
   A) $4x$ B) -4 C) 0 D) $-2x$

3. k ning qanday qiymatida $y = kx^3 + 2$ funksiyaning grafigi $B(-2; -14)$ nuqtadan o'tadi?
   A) 1 B) 2 C) -1 D) $-0,5$

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
   1) $(x+a)\cdot(x-b) = x^2 - (a\ \ b)x - ab$;
   2) $6ab + (2a^3 + b^3 - (3ab^2 - (a^3 + 2ab^2 - b^3))) = 3a^3 - ab^2 + 6ab$;
   3) $5a^2 - 3b^2 - ((a^2 - 2ab - b^2) - (5a^2 - 2ab - b^2)) = 9a^2 - 3b^2$;
   4) $3a - (2c - (6a - (c - b) + c + (a + 8b) - 6c)) = 10a + 9b - 8c$.
   A) 1; 3; 4 B) 1; 2; 4 C) 2; 3; 4 D) 1; 2; 3

5. $(m^2 - \frac{2+m^4}{m^2-1}) : \frac{m^2+2}{m-1}$ ni soddalashtiring.
   A) $\frac{1}{m-1}$ B) $m-1$ C) 1 D) $-\frac{1}{m+1}$

6. $\begin{cases} x + y = 3 \\ x^3 - y^2 = -6, \end{cases}$ $y-?$
   A) 2,5 B) 0,5 C) 1 D) 3

7. $f(x) = x - \frac{x^2}{2}$ funksiyaning (6; 2) nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
   A) $\frac{x^2}{2} - \frac{x^3}{6} + 20$ B) $\frac{x^2}{2} + \frac{x^3}{6} - 56$
   C) $\frac{x^2}{2} - \frac{x^3}{6} + 18$ D) $\frac{x^2}{2} - \frac{x^3}{6} - 18$

8. $130°$ li yoyga tiralgan vatar aylanani ikki qismga ajratadi. Katta yoyning ixtiyoriy nuqtasidan qaraganda, bu vatar qanday burchak ostida ko'rinadi?
   A) $115°$ B) $65°$ C) $70°$ D) $120°$

9. Uchlari $A(3; -1)$ va $B(2; 4)$ nuqtada bo'lgan AB kesmaning o'rtasidagi nuqtaning koordinatalarini toping.
   A) $(-2,5;\ 1,5)$ B) $(2,5;\ 1,5)$ C) $(2,5;\ 3)$ D) $(2,5;\ -1,5)$

10. Tekislikka tushirilgan og'ma va perpendikulyar orasidagi burchak $arcsin\frac{7}{25}$ ga teng. Og'maning uzunligi 75 ga teng. Perpendikulyarning uzunligini toping.
    A) 21 B) 36 C) 72 D) $31\frac{1}{2}$

11. Quyidagilardan qaysi biri Oyz tekislikka nisbatan $P(3; -2; 4)$ nuqtaga simmetrik bo'lgan nuqta?
    A) $(3; 2; -4)$ B) $(3; 2; 4)$ C) $(-3; -2; 4)$ D) $(-3; 2; -4)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
    1) $tg(x-y) = \frac{tgx - tgy}{1 + tgx \cdot tgy}$,
    $x, y, x - y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$;
    2) $cos^2\frac{x}{2} = \frac{1 - cosx}{2}$;
    3) $sinx - siny = 2cos\frac{x+y}{2}sin\frac{x-y}{2}$;
    4) $tgx - tgy = \frac{sin(x-y)}{cosx \cdot cosy}$,
    $x, y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$.
    A) 2; 3; 4 B) 1; 2; 3 C) 1; 2; 4 D) 1; 3; 4

13. Quyidagi oddiy kasr ko'rinishida berilgan sonlardan qaysilarini chekli o'nli kasr ko'rinishiga keltirib bo'lmaydi:
    1) $\frac{2}{34}$; 2) $\frac{14}{625}$; 3) $\frac{4}{90}$; 4) $\frac{11}{125}$?
    A) *2; 3* B) *1; 3* C) *4; 1* D) *3; 4*

14. Umumiy daftarning bahosi oldin 15%, keyin 139 so'm arzonlashgach, 150 so'm bo'ldi. Daftarning dastlabki bahosi necha so'm bo'lgan?
    A) 500 B) 400 C) 340 D) 350

15. $(\frac{4a}{4-a^2} - \frac{a-2}{4+2a}) \cdot \frac{2}{a+2} + \frac{a+1}{2-a}$ ni soddalashtiring.
    A) $\frac{2+a}{2-a}$ B) -1 C) 1 D) $\frac{3+a}{2-a}$

16. $\sqrt[5]{1024 \cdot 108} + 0,5 \cdot \sqrt[5]{32 \cdot 243}$ ni hisoblang.
    A) 48 B) 45 C) 51 D) 49

17. Agar $a = 6 + \sqrt{3}$ va $b = 6 - \sqrt{3}$ bo'lsa, $\frac{a^3 - b^3}{a^2 - b^2} : \frac{a^2 + ab + b^2}{a^3 + 3a^2b + 3ab^2 + b^3}$ ning qiymatini hisoblang.
    A) 198 B) 144 C) 169 D) 196

18. Ikki sonning yig'indisi 24 ga teng. Agar shu sonlardan birining 60% i ikkinchisining $\frac{3}{10}$ qismiga teng bo'lsa, shu sonlarni toping.
A) 20 va 4 B) 18 va 6 C) 8 va 16
D) 7 va 17

19. $x^2 - \frac{a}{4}x + a = 0$ tenglamaning ildizlaridan biri 1 ga teng. Tenglamaning ikkinchi ildizini toping.
A) $-\frac{1}{2}$ B) $-\frac{4}{3}$ C) $-\frac{1}{3}$ D) $\frac{1}{3}$

20. $a_n = 4n - 12$ $(n \in N)$ formula bilan berilgan ketma-ketlikning dastlabki 60 ta hadining yig'indisini toping.
A) 6000 B) 4500 C) 7200 D) 6600

21. $y = \frac{1}{3}x^3 + \frac{1}{2}x^2 - 6x$ funksiyaning grafigiga o'tkazilgan urinma x ning qanday qiymatlarida $y = 4x - 1$ to'g'ri chiziqqa parallel bo'ladi?
A) -4 va 3 B) -3 va 2 C) -5 va 4
D) -2 va 1

22. Teng yonli uchburchakning asosi 40 ga, unga tushirilgan balandligi 21 ga teng. Uchburchakning yon tomonini toping.
A) 27 B) 29 C) 19 D) 31

23. Romb diagonallarining tomonlari bilan hosil qilgan burchaklari kattaliklarining nisbati 4:5 ga teng. Rombning kichik burchagini toping.
A) 50° B) 80° C) 60° D) 40°

24. k ning quyida ko'rsatilgan qiymatlaridan qaysi birida $cos kx \cdot cos 4x - sin kx \cdot sin 4x = \frac{\sqrt{3}}{2}$ tenglamaning ildizlari $\pm\frac{\pi}{30} + \frac{2\pi n}{5}$ $(n \in Z)$ bo'ladi?
A) 3 B) 2 C) 1 D) 4

25. 6 ni berilgan songa ko'paytirganda, hosil bo'lgan son ...14 ko'rinishda bo'lsa, berilgan son quyidagilardan qaysi biri ko'rinishida bo'lishi mumkin?
A) ...19 B) ...24 C) ...14 D) ...79

26. x y ning 75% ini tashkil etadi, y esa z dan 300% ga ko'p. x z dan necha foiz ko'p?
A) 80 B) 100 C) 250 D) 200

27. $\sqrt{17 - 12\sqrt{2}} \cdot (9 + 6\sqrt{2})$ ning qiymatini hisoblang.
A) 3 B) $2\sqrt{2}$ C) 2 D) $\sqrt{3 + \sqrt{8}}$

28. $(\sqrt{10} - \sqrt{2}) \cdot \sqrt{3 - \sqrt{5}} \cdot (3 + \sqrt{5}) - 2$ ni hisoblang.
A) 4 B) 8 C) 6 D) 10

29. a ning qanday qiymatida faqat bitta $(x;\ y)$ juftlik $\begin{cases} x + y = a \\ xy = 0,25 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini qanoatlantiradi?
A) $\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}$ B) $-1; 1$ C) $-3; 3$ D) -3

30. $2|x + 3| \le |x - 6|$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari nechta?
A) 5 B) 13 C) 10 D) 6

31. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning yig'indisi 9 ga, maxraji esa $\frac{1}{3}$ ga teng. Uning birinchi hamda to'rtinchi hadlarining ayirmasini toping.
A) $4\frac{2}{9}$ B) $5\frac{1}{3}$ C) $5\frac{7}{9}$ D) $5\frac{2}{3}$

32. $\frac{2\log_4 x}{2 + \log_4 x} \le 1$ tengsizlikning yechimlaridan iborat tub sonlarning yig'indisini toping.
A) 28 B) 17 C) 21 D) 41

33. Muntazam oltiburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusi $8\sqrt{3}$ ga teng. Uning parallel tomonlari orasidagi masofa topilsin.
A) 12 B) 18 C) 16 D) 24

34. Muntazam to'rtburchakli kesik piramida asoslarining tomonlari 3 va 5 sm, diagonali $2\sqrt{17}$ sm. Kesik piramidaning balandligi necha sm?
A) 7 B) 6 C) 8 D) 5

35. Balandligi 9 ga, yasovchisi 15 ga teng konusga ichki chizilgan sharning sirtining yuzini toping.
A) 72π B) 56π C) 48π D) 64π

36. $8 sin^2 \frac{25\pi}{24} \cdot cos^2 \frac{23\pi}{24} - 1$ ni hisoblang.
A) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ B) $-\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $\frac{1}{2}$ D) $-\frac{1}{2}$

Matematika

1. $6\frac{3}{8} - (2,5 - 2\frac{1}{3}) : 1\frac{1}{3}$ ni hisoblang.
   A) $5\frac{1}{4}$ B) $5\frac{2}{3}$ C) $6\frac{1}{4}$ D) $4\frac{1}{2}$

2. $\frac{\sqrt[4]{-24} + \sqrt[4]{81} + \sqrt[4]{192} + 3\sqrt[3]{-375}}{\sqrt[3]{-375}} - 1$ ni hisoblang.
   A) 1 B) -1 C) 0 D) 3

3. Agar $f(x) = (3 + \frac{1}{x})(11 + 4x)$ bo'lsa, $f(-\frac{1}{2})$ ni toping.
   A) -3 B) 9 C) -5 D) 15

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
   1) $(x - c) \cdot (x - d) = x^2 + (c - d)x + cd$;
   2) $(x - e) \cdot (x + d) = x^2 - (e - d)x - ed$;
   3) $12x^2 + y^2 - (8x^2 - 5y^2 - (-10x^2 + (5x^2 - 6y^2))) = -x^2$;
   4) $5a^2 - 3b^2 - ((a^2 - 2ab - b^2) - (5a^2 - 2ab - b^2)) = 9a^2 - 3b^2$.
   A) 2;3;4 B) 1;2;4 C) 1;2;3 D) 1;3;4

5. $\frac{0,05 \cdot 0,9 - 0,05}{0,2^2 - 2 \cdot 0,06 + 0,3^2}$ ning qiymatini hisoblang.
   A) -2 B) 0,2 C) 0,25 D) $-0,5$

6. $\begin{cases} x + 2 = 0 \\ x^2 y = 8 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.
   A) $(-2;2)$ B) $(-2;-2)$ C) $\emptyset$
   D) $(-2;2), (-2;-2)$

7. $f(x) = x^3 + 3x - 5$ funksiyaning $[-1;1]$ kesmadagi eng katta va eng kichik qiymatlari orasidagi ayirmani toping.
   A) 6 B) -6 C) 8 D) -5

8. Ikki qo'shni burchakning ayirmasi 28° ga teng. Shu burchaklardan kichigini toping.
   A) 78° B) 72° C) 76° D) 82°

9. $\vec{a}(2;-3)$ va $\vec{b}(-2;-3)$ vektorlar berilgan. $\vec{m} = \vec{a} - 2\vec{b}$ vektorning koordinatalarini ko'rsating.
   A) $(-3;6)$ B) $(6;3)$ C) $(2;-3)$
   D) $(-2;-9)$

10. Tekislikka tushirilgan og'ma va perpendikulyar orasidagi burchak $arcsin\frac{5}{13}$ ga teng. Og'maning uzunligi 39 ga teng. Perpendikulyarning uzunligini toping.
    A) 72 B) $11\frac{7}{13}$ C) 36 D) $27\frac{9}{13}$

11. Oxz tekisligiga nisbatan $(1;2;3)$ nuqtaga simmetrik bo'lgan nuqtani toping.
    A) $(-1;-2;3)$ B) $(-1;2;3)$ C) $(1;-2;3)$
    D) $(1;2;-3)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
    1) $cos(x - y) = cosx \cdot cosy + sinx \cdot siny$;
    2) $tg(x + y) = \frac{tgx + tgy}{1 - tgx \cdot tgy}$,
    $x, y, x + y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$;
    3) $cosx + cosy = -2sin\frac{x+y}{2} sin\frac{x-y}{2}$;
    4) $tgx - tgy = \frac{sin(x-y)}{cosx \cdot cosy}$,
    $x, y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$.
    A) 1;2;4 B) 2;3;4 C) 1;3;4 D) 1;2;3

13. Ikki sonning ko'paytmasi 5,76 ga teng. Birinchi ko'paytuvchi 0,8 ga, ikkinchi ko'paytuvchi 1,6 ga bo'linsa, ko'paytma necha bo'ladi?
    A) 10 B) 6 C) 4,5 D) 12

14. Mahsulotning narxi ketma-ket ikki marta 20% ga oshirilgandan so'ng 516 so'm bo'ldi. Birinchi ko'tarilgandan so'ng mahsulotning narxi necha so'm bo'lgan?
    A) 430 B) 416 C) 486 D) 480

15. $\left(\frac{1}{a(a+1)} + \frac{1}{(a+1)(a+2)}\right) \cdot \frac{a^2 + 2a}{8}$ ni soddalashtiring.
    A) $\frac{1}{8}$ B) $\frac{1}{6}$ C) $\frac{1}{4}$ D) $\frac{3}{4}$

16. $\sqrt{19 - \sqrt{192}}$ ni soddalashtiring.
    A) $4 - \sqrt{3}$ B) $4 + \sqrt{3}$ C) $10 - \sqrt{3}$
    D) $\sqrt{3} - 4$

17. $\frac{3,6 \cdot (1,7^3 - 1,5^3)}{5,1^2 + 5,1 \cdot 4,5 + 4,5^2}$ ni hisoblang.
    A) 0,08 B) 0,45 C) 0,06 D) 0,3

18. $2,5(ax - 5,2) = 2a - 5x - 9$ tenglama a ning qanday qiymatlarida cheksiz ko'p yechimga ega?
    A) 2 B) $-\frac{1}{2}$ C) -2 D) $\frac{1}{2}$

19. $x^2 = |6 - 5x|$ tenglamaning nechta ildizi bor?
    A) 1 B) 4 C) 3 D) 2

20. Birinchi hadi 4 ga, o'n birinchi hadi 8 ga teng bo'lgan arifmetik progressiyaning oltinchi hadini toping.
    A) 5 B) 4 C) 7 D) 6

21. $f(x)=\frac{1}{3}x^3-5lnx$ funksiyaning grafigiga $x_0=2$ nuqtada o'tkazilgan urinmaning burchak koeffitsiyentini toping.
A) 3 B) 3,5 C) 1,5 D) 2

22. Uchburchakning kichik tomoni 3 ga, unga tashqi chizilgan aylananing diametri esa $2\sqrt{3}$ ga teng. Uchburchakning kichik burchagini toping.
A) 45° B) 30° C) 75° D) 60°

23. Parallelogrammning diagonallari 7 va 24 ga teng. Uning barcha tomonlari kvadratlarining yig'indisini toping.
A) 1150 B) 1250 C) 625 D) 1350

24. $4cos5x=6+3cos(\frac{\pi}{2}+5x)$ tenglama $[-\pi;\ 2\pi]$ kesmada nechta ildizga ega?
A) 1 B) $\emptyset$ C) 3 D) 2

25. 100 va 125 so'mlik daftarlardan hammasi bo'lib 1750 so'mlik xarid qilindi. Quyida keltirilgan sonlardan qaysi biri 100 so'mlik daftarlarning soniga teng bo'lishi mumkin?
A) 15 B) 14 C) 17 D) 16

26. Daftarning narxi ketma-ket ikki marta bir xil foizga pasaytirilgandan keyin, 90 so'mdan 72,9 so'mga tushdi. Daftarning narxi har gal necha foizga pasaytirilgan?
A) 9 B) 20 C) 10 D) 15

27. Agar $a+a^{-1}=6$ bo'lsa, a^3+a^{-3} ni hisoblang.
A) 198 B) 216 C) 210 D) 234

28. $\sqrt[3]{a}=\sqrt[3]{c}+\sqrt[3]{b}$ bo'lsa, $(a-b-c)^3$ ni toping.
A) $81abc$ B) $-27abc$ C) $27abc$
D) $-81a^2b^2c^2$

29. Agar $y-x=2$ va $a>0$ bo'lsa, $\begin{cases} y^2-x^2=6a \\ y+x=1,5a^2 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.
A) (7;9) B) (5;7) C) (2;4) D) (4;6)

30. $2\mid x-3\mid\leq\mid x+3\mid$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari nechta?
A) 5 B) 6 C) 0 D) 9

31. (b_n) geometrik progressiyada $b_4-b_2=24$ va $b_2+b_3=6$ bo'lsa, b_2 ning qiymatini toping.
A) 1 B) 0,4 C) 2,2 D) $1\frac{1}{5}$

32. $a=2log_25$, $b=4\log_{\frac{1}{4}}\frac{5}{26}$, $c=3\log_{\frac{1}{8}}\frac{1}{23}$ sonlarni o'sish tartibida joylashtiring.
A) $a<b<c$ B) $b<a<c$ C) $c<a<b$
D) $b<c<a$

33. Rombning yuzi 120 ga, diagonallaridan biri 24 ga teng. Uning tomonini toping.
A) 13 B) 10 C) 14 D) 8

34. Muntazam to'rtburchakli kesik piramida asoslarining tomonlari 4 va 8 sm, diagonali 12 sm. Kesik piramidaning balandligi necha sm?
A) $6\sqrt{2}$ B) 3 C) 4,5 D) $8\sqrt{2}$

35. Qirrasi 12 ga teng bo'lgan kub yoqlarining markazlari tutashtirildi. Hosil bo'lgan jismning hajmini toping.
A) 144 B) 288 C) 216 D) 169

36. $cos^284°+cos^236°+cos84°\cdot cos36°$ ni soddalashtiring.
A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{3}{4}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{1}{4}$

Matematika

1. $-1\frac{3}{4}\cdot 6,5\cdot(-\frac{4}{7})-9,25$ ni hisoblang.
A) $-10,25$ B) $-2,75$ C) $3,75$ D) $2,75$

2. $a(b-c)-b(c-a)-c(a-b)$ ni soddalashtiring.
A) $2ab-2ac$ B) $-2ac$ C) $2ab-2bc$
D) 0

3. Toq funksiyani ko'rsating.
A) $f(x)=\cos x+\sin x$
B) $f(x)=\cos^2 x-\cos x$
C) $f(x)=e^x+\operatorname{ctg} x$
D) $f(x)=(1-cos2x)\cdot ctgx-2x$

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
1) $(x+a)\cdot(x-b)=x^2-(a-b)x-ab$;
2) $(x-c)\cdot(x-d)=x^2-(c+d)x+cd$;
3) $(x-e)\cdot(x+d)=x^2-(e-d)x-ed$;
4) $6ab+(2a^3+b^3-(3ab^2-(a^3+2ab^2-b^3)))=3a^3-ab^2+6ab$.
A) 2;3;4 B) 1;2;3 C) 1;2;4 D) 1;3;4

5. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysi biri ayniyat?
A) $2mn-n^2-m^2=-(m+n)^2$
B) $\frac{m^3-n^3}{m-n}=m^2-mn+n^2$
C) $-\frac{m-n}{n}=\frac{-m-n}{n}$
D) $m-(m-n)-(m+n)=-m$

6. $\begin{cases}x^2+y^2-xy=1,\\ x+y=-2.\end{cases}$ $2xy=?$
A) -1 B) 1 C) -3 D) 2

7. $f(x)=-x+\frac{x^2}{2}$ funksiyaning $(6;2)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $-\frac{x^2}{2}+\frac{x^3}{6}-18$ B) $-\frac{x^2}{2}+\frac{x^3}{6}-16$
C) $-\frac{x^2}{2}+\frac{x^3}{6}+18$ D) $-\frac{x^2}{2}+\frac{x^3}{6}+16$

8. Aylananing kesishuvchi ikki vatari orasidagi burchaklardan biri 100° ga teng. Shu burchakka qo'shni bo'lgan burchaklarning yig'indisini toping.
A) 90° B) 100° C) 160° D) 200°

9. $x^2+y^2+4x-6y-3=0$ tenglama bilan berilgan aylananing markazini toping.
A) $(2;-3)$ B) $(-2;3)$ C) $(-4;6)$
D) $(4;-3)$

10. Tekislikka og'ma va perpendikulyar tushirilgan. Og'ma va tekislik orasidagi burchak $arccos\frac{4}{5}$ ga, og'maning tekislikdagi proyeksiyasi 36 ga teng. Perpendikulyarning uzunligini toping.
A) 27 B) $21\frac{3}{5}$ C) 48 D) $28\frac{4}{5}$

11. Quyidagilardan qaysi biri Oxz tekislikka nisbatan $K(2;4;-5)$ nuqtaga simmetrik bo'lgan nuqta?
A) $(2;-4;5)$ B) $(-2;4;5)$ C) $(-2;-4;5)$
D) $(2;-4;-5)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
1) $tg(x-y)=\frac{tgx-tgy}{1+tgx\cdot tgy}$,
$x,y,x-y\neq\frac{\pi}{2}+\pi n, n\in Z$;
2) $sin^2\frac{x}{2}=\frac{1-cosx}{2}$;
3) $sinx+siny=2cos\frac{x+y}{2}sin\frac{x-y}{2}$;
4) $tgx-tgy=\frac{sin(x-y)}{cosx\cdot cosy}$,
$x,y\neq\frac{\pi}{2}+\pi n, n\in Z$.
A) 1;2;4 B) 2;3;4 C) 1;3;4 D) 1;2;3

13. $0,26\cdot0,00015$ ko'paytma quyidagi sonlardan qaysi biriga teng emas?
A) $390\cdot10^{-7}$ B) $3,9\cdot10^{-5}$ C) $3,9\cdot10^{-6}$
D) $39\cdot10^{-6}$

14. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 20% ga orttirildi. Uning yuzi o'zgarmasligi uchun enini necha foizga kamaytirish kerak?
A) $16\frac{2}{3}$ B) 20 C) $18\frac{1}{3}$ D) 25

15. $(\frac{1}{m^2-m}-\frac{1}{m-1})\cdot\frac{m}{m+2}+\frac{m+1}{m+2}$ ni soddalashtiring.
A) $\frac{m}{m-2}$ B) $\frac{2m-2}{m^2-4}$ C) $\frac{m}{m+2}$
D) $\frac{2}{m^2-4}$

16. $\frac{\left(\frac{1}{343}\right)^{-1/3}+\left(\frac{1}{8}\right)^{-1/3}}{\sqrt[3]{18\sqrt{144}}}$ ni hisoblang.
A) $\frac{5}{16}$ B) $\frac{3}{2}$ C) $\frac{4}{7}$ D) $\frac{2}{3}$

17. $\frac{x^4+1}{x^2-x\sqrt{2}+1}$ ni qisqartiring.
A) $x^2-x\sqrt{2}-1$ B) x^2+1 C) x^2-1
D) $x^2+\sqrt{2}x+1$

18. Bir son ikkinchi sondan 6 ta ortiq. Ularning o'rta arifmetigi 23 ga teng. Shu sonlardan kattasini toping.
A) 27 B) 23 C) 26 D) 33

19. $x^2 - 9x + q = 0$ tenglamaning ildizlaridan biri 2 ga teng. Bu tenglamaning barcha koeffitsiyentlari yig'indisini toping.
A) -6 B) 2 C) 6 D) 3

20. Hadlari $b_n = 3n - 10,5$ $(n \in N)$ formula bilan berilgan ketma-ketlikning dastlabki 40 ta hadi yig'indisini toping.
A) 2040 B) 4860 C) 5440 D) 5140

21. Qaysi to'g'ri chiziq $y = 4 - x^2$ funksiya grafigiga $x_0 = -\frac{1}{2}$ nuqtada o'tkazilgan urinmaga parallel bo'ladi?
A) $y = 2x + 8$ B) $y = 4 - 4x$
C) $y = 4x + 8$ D) $y = x + 8$

22. Teng yonli uchburchakning asosi 40 ga, unga tushirilgan balandligi 21 ga teng. Uchburchakning yon tomonini toping.
A) 27 B) 29 C) 19 D) 31

23. a va b ning qanday qiymatlarida $ax + by = -4$ va $3x - 3y = 4$ to'g'ri chiziqlar ustma-ust tushadi?
A) $a = -3; b = 3$ B) $a = 3; b = -3$
C) $a = 3; b = -1$ D) $a = b = 3$

24. $cos^2\frac{x}{4} > \frac{\sqrt{2}}{2} + sin^2\frac{x}{4}$ tengsizlikni yeching.
A) $\frac{\pi}{8} + \pi n < x < \frac{7\pi}{8} + \pi n,\ n \in Z$
B) $\frac{\pi}{8} + 2\pi n < x < \frac{7\pi}{8} + 2\pi n,\ n \in Z$
C) $\frac{\pi}{4} + 2\pi n < x < \frac{7\pi}{4} + 2\pi n,\ n \in Z$
D) $-\frac{\pi}{2} + 4\pi n < x < \frac{\pi}{2} + 4\pi n,\ n \in Z$

25. M ta sonning o'rta arifmetigi 14 ga, boshqa N tasiniki - 28 ga teng. Shu $M + N$ ta sonning o'rta arifmetigini toping.
A) $\frac{M+N}{42}$ B) $\frac{N}{M}$ C) $\frac{14M + 28N}{M+N}$
D) $\frac{14N + 28M}{M+N}$

26. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish birinchi yili 18% ga, ikkinchi yili 15% ga ortdi. Mahsulot ishlab chiqarish ikki yil mobaynida necha foizga ortgan?
A) 34,7 B) 35,7 C) 33 D) 35

27. $\left(\frac{\sqrt{y} - \sqrt{x}}{y - \sqrt{xy} + x} + \frac{x}{x\sqrt{x} + y\sqrt{y}}\right) \cdot \frac{x\sqrt{x} + y\sqrt{y}}{y}$ ni soddalashtiring.
A) $\sqrt{x} - \sqrt{y}$ B) $\sqrt{x} + \sqrt{y}$ C) $\sqrt{y}$

28. $\frac{1}{\sqrt{2} + \sqrt{3} + \sqrt{5}}$ kasrning maxrajini irratsionallikdan qutqaring.
A) $\frac{2\sqrt{3} - 3\sqrt{2} + \sqrt{30}}{12}$ B) $\frac{2\sqrt{3} + 3\sqrt{2} - \sqrt{30}}{12}$
C) $\frac{3\sqrt{2} - 2\sqrt{3} + \sqrt{30}}{12}$ D) $\frac{3\sqrt{2} - 2\sqrt{3} - \sqrt{30}}{12}$

29. $\begin{cases} x^3 + y^3 = 126 \\ x^2y + xy^2 = 30 \end{cases}$ tenglamalar sistemasining haqiqiy yechimlaridan iborat barcha x va y larning yig'indisini toping.
A) 2 B) 12 C) 10 D) 6

30. $4x^2 - 16x \le -7$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari yig'indisini toping.
A) -4 B) 3 C) 6 D) 5

31. Ikkinchi hadi 6 ga teng, birinchi uchta hadining yig'indisi 26 ga teng o'suvchi geometrik progressiyaning to'rtinchi va ikkinchi hadlari ayirmasini toping.
A) 16 B) 32 C) 48 D) 36

32. $log_{0,5}(x+3)^4 > log_{0,5}(3x-7)^4$ tengsizlikni yeching.
A) $(5; \infty)$ B) $(-\infty; -3) \cup (-3; 1) \cup (5; \infty)$
C) $(-\infty; 1) \cup (1; \infty)$ D) $(-3; 1) \cup (5; \infty)$

33. Aylanaga ichki chizilgan muntazam olti burchakning tomoni 12 ga teng. Shu aylanaga kvadrat ham ichki chizilgan. Kvadratga ichki chizilgan doiraning yuzini toping.
A) 90π B) 72π C) 36π D) 48π

34. Muntazam to'rtburchakli piramidaning yon qirrasi $6\sqrt{2}$ ga, yon qirra va asos tekisligi orasidagi burchak $45°$ ga teng. Piramidaning hajmini toping.
A) 144 B) $96\sqrt{2}$ C) 192 D) 72

35. Yasovchisi 15 ga, asosining radiusi 9 ga teng bo'lgan konusga ichki chizilgan sharning radiusini toping.
A) 6 B) 4,5 C) $3\sqrt{2}$ D) $4,5\sqrt{3}$

36. $cos(2arcsin\frac{4}{5})$ ni hisoblang.
A) $\frac{7}{25}$ B) $\frac{24}{25}$ C) $-\frac{24}{25}$ D) $-\frac{7}{25}$

Matematika

1. Chumoli 5 minutda $18\frac{1}{3}$ m yuradi. U 1 minutda necha metr yuradi?
   A) $3\frac{2}{3}$ B) $3\frac{5}{6}$ C) $3\frac{1}{3}$ D) $3\frac{1}{6}$

2. Agar $ab = 9$ va $3b = 8,1c$ bo'lsa, ac ni hisoblang.
   A) $2\frac{5}{8}$ B) $3\frac{1}{3}$ C) $2\frac{1}{2}$ D) $2\frac{4}{9}$

3. Agar $f(x) = (2x+3)(\frac{3}{x} - 3)$ bo'lsa, $f(-1)$ ni toping.
   A) 6 B) 0 C) -3 D) -6

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
   1) $(x-c)\cdot(x+d) = x^2 - (e-d)x - cd$;
   2) $12x^2+y^2-(8x^2-5y^2-(-10x^2+(5x^2-6y^2))) = -x^2$;
   3) $6ab + (2a^3+b^3-(3ab^2-(a^3+2ab^2-b^3))) = 3a^3 - ab^2 + 6ab$;
   4) $5a^2-3b^2-((a^2-2ab-b^2)-(5a^2-2ab-b^2)) = 9a^2+4ab-3b^2$.
   A) 1;3;4 B) 1;2;3 C) 1;2;4 D) 2;3;4

5. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysi biri ayniyat?
   A) $2mn - n^2 - m^2 = (m+n)^2$
   B) $\frac{m^3-n^3}{m-n} = m^2 - mn + n^2$
   C) $\frac{m-n}{n} = \frac{-m-n}{n}$
   D) $m-(m-n)-(m+n) = -m$

6. $\begin{cases} x+3=0 \\ xy^2 = 12 \end{cases}$ tenglamalar sistemasining yechimini toping.
   A) $(-3;\ -2)$ B) $(-3;\ 2)$
   C) $(-3;\ -2),\ (-3;\ 2)$ D) $\emptyset$

7. $y = e^{2-3x}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini ko'rsating.
   A) $e^{2-3x} + C$ B) $\frac{1}{3}e^{2-3x} + C$
   C) $-\frac{1}{3}e^{2-3x} + C$ D) $-3e^{2-3x} + C$

8. Aylananing AB vatari o'zi ajratgan yoylardan birining ixtiyoriy nuqtasidan $40°$ li burchak ostida ko'rinadi. A va B nuqta chegarasi bo'lgan yoylar necha gradus?
   A) $80°$ va $280°$ B) $160°$ va $200°$
   C) $110°$ va $250°$ D) $100°$ va $260°$

9. $x^2+y^2-4x+6y-3=0$ tenglama bilan berilgan aylananing markazini toping.
   A) $(4;-4)$ B) $(-4;-3)$ C) $(2;-3)$
   D) $(-4;6)$

10. Tekislikka og'ma va perpendikulyar tushirilgan. Og'maning tekislikdagi proyeksiyasi 11 ga, perpendikulyarning uzunligi 60 ga teng. Og'ma va perpendikulyar orasidagi burchakni toping.
    A) $arccos\frac{11}{60}$ B) $arcsin\frac{11}{61}$ C) $arcsin\frac{11}{60}$
    D) $arctg\frac{60}{61}$

11. Oxy tekisligiga nisbatan $(1;2;3)$ nuqtaga simmetrik bo'lgan nuqtani toping.
    A) $(-1;-2;3)$ B) $(-1;2;3)$ C) $(1;-2;3)$
    D) $(1;2;-3)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
    1) $cos(x-y) = cosx\cdot cosy + sinx\cdot siny$;
    2) $tg(x-y) = \frac{tgx-tgy}{1+tgx\cdot tgy}$;
    $x, y, x-y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$;
    3) $sin^2\frac{x}{2} = \frac{1+cosx}{2}$;
    4) $tgx + tgy = \frac{sin(x+y)}{cosx\cdot cosy}$,
    $x, y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$.
    A) 1;3;4 B) 1;2;4 C) 2;3;4 D) 1;2;3

13. a; 4,2; 3,1 va 1,1 sonlarining o'rta arifmetigi 2,95 ga teng. a ning qiymatini toping.
    A) $-2,6$ B) 2,1 C) 2 D) 3,4

14. Kvadratning perimetri 30% ga uzaytirilsa, uning yuzi necha foizga ko'payadi?
    A) 60 B) 69 C) 44 D) 59

15. $\frac{4+\sqrt{8}}{4-\sqrt{8}} - \frac{4-\sqrt{8}}{4+\sqrt{8}}$ ning qiymatini toping.
    A) $\frac{3\sqrt{8}}{8}$ B) $4\sqrt{2}$ C) $\frac{\sqrt{8}+8}{4}$ D) $4\frac{2}{5}$

16. $\sqrt[3]{2\sqrt[5]{2\sqrt{2}}} : 2^{\frac{1}{15}}$ ni hisoblang.
    A) $\sqrt[3]{16}$ B) $\sqrt[3]{32}$ C) $\sqrt[3]{64}$ D) $\sqrt[3]{8}$

17. $(a^3-3a^2b+3ab^2-b^3)(a+b) : \left(ab - \frac{a^3+b^3}{a+b}\right)$ ni soddalashtiring.
    A) a^2-b^2 B) b^2-a^2 C) $(a+b)^2$
    D) $(a-b)^2$

18. k ning qanday qiymatida $\begin{cases} 3x+6y = k, \\ 9x+18y = k+1\frac{1}{3} \end{cases}$ tenglamalar sistemasi cheksiz ko'p yechimga ega?
    A) 1 B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{1}{2}$

19. $7x^2+(5k^2-6k-11)x-k^4=0$tenglamaning ildizlari qarama-qarshi sonlarbo'ladigan k ning barcha qiymatlari yig'indisini aniqlang.
A) 1,4 B) 1,2 C) 1,8 D) 1,6

20. Arifmetik progressiya 26 haddan iborat. Agar $a_6=-0,25$ va $a_{21}=-1,25$ bo'lsa, uning hadlari yig'indisini toping.
A) $-10,75$ B) $-9,75$ C) $-8,5$ D) $-19,5$

21. $y=\frac{1}{2}x^2-\frac{3}{2}lnx$ funksiyaning grafigiga $x_0=2$ nuqtada o'tkazilgan urinmaning burchak koeffitsiyentini toping.
A) 2 B) $-2,5$ C) 1,25 D) 1,5

22. ABC uchburchakda $AB=3, CB=4$ va $cosB=-\frac{11}{24}$ bo'lsa, AC ning qiymatini toping.
A) 6 B) 2 C) 4 D) 3

23. ABCD parallelogramm C uchining koordinatalari (5; 8), O(3; 6) esa parallelogramm diagonallarining kesishish nuqtasi. Parallelogramm A uchining koordinatalarini toping.
A) (3;2) B) (2;3) C) (4;1) D) (1;4)

24. Agar $2sin6x(cos^43x \quad sin^43x)=sinkx$ tenglik hamma vaqt o'rinli bo'lsa, k ni toping.
A) 24 B) 12 C) 18 D) 6

25. $\frac{n^3-2n^2-12}{n}$ $(n\in N)$ kasrning natural sonlardan iborat barcha qiymatlari yig'indisini toping.
A) 105 B) 102 C) 124 D) 146

26. 11300 ning 36% i va 9000 ning 28% i yig'indisi shu sonlar yig'indisining 40% idan qanchaga kam?
A) 1432 B) 1532 C) 1528 D) 1632

27. Agar $\frac{4b+a}{5a-7b}=\frac{7}{8}$ bo'lsa, $\frac{3a^2-4ab+b^2}{5a^2+3b^2}$ ning qiymati nimaga teng bo'ladi?
A) $\frac{22}{47}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{9}{22}$ D) 0,5

28. $\frac{\sqrt[3]{26-15\sqrt{3}}\cdot(2-\sqrt{3})}{28-16\sqrt{3}}$ ni soddalashtiring.
A) $\frac{1}{3}$ B) 1 C) $\frac{1}{4}$ D) $2-\sqrt{3}$

29. Raqamlarining yig'indisidan 8 marta katta, raqamlari kvadratlarining yig'indisi esa 53 ga teng bo'lgan ikki xonali sonning kvadratini toping.
A) 729 B) 5184 C) 6561 D) 529

30. $|4-x|<5$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari nechta?
A) 5 B) 10 C) 11 D) 9

31. 7, 10, 13, ... arifmetik progressiyaning nechta hadining har birini qiymati 99 dan katta, 212 dan kichik bo'ladi?
A) 34 B) 33 C) 38 D) 39

32. Agar $\log_3 4=a$ va $\log_5 4=b$ bo'lsa, $\log_4 135$ ni a va b orqali ifodalang.
A) $\frac{3a+b}{a+b}$ B) $\frac{a+2b}{ab}$ C) $\frac{a+3b}{a+b}$ D) $\frac{a+3b}{ab}$

33. Aylananing radiusi 8 ga teng. Aylanaga ichki chizilgan muntazam uchburchakning yuzini toping.
A) $36\sqrt{2}$ B) 64 C) $48\sqrt{3}$ D) $27\sqrt{3}$

34. Uchburchakli muntazam prizmaning balandligi 32 ga, asosining yuzi $\frac{9\sqrt{3}}{16}$ ga teng. Prizma yon yog'ining yuzini toping.
A) 54 B) 48 C) 42 D) 36

35. Sharga ichki chizilgan konusning asosi sharning katta doirasiga teng. Konus o'q kesimining yuzi 36 ga teng. Sharning hajmini toping.
A) 144π B) 432π C) 288π D) 334π

36. $\frac{3sin\alpha+2}{5+cos\beta}+\frac{3}{tg^2\gamma+ctg^2\gamma}$ ifodaning eng katta qiymatini toping.
A) 4,75 B) 6,25 C) 2,75 D) 3,45

Matematika

1. $\frac{84}{95}\cdot 1\frac{3}{14}:1\frac{1}{5}:4\cdot 4\frac{3}{4}$ ni hisoblang.

   A) $1\frac{3}{8}$ B) $1\frac{1}{16}$ C) $1\frac{5}{7}$ D) $2\frac{1}{8}$

2. $\frac{c-2\sqrt{c}+1}{1-\sqrt{c}}$ kasrni qisqartiring.

   A) $c-1$ B) $\sqrt{c}-1$ C) $-\sqrt{c}+1$
   D) $c+1$

3. Quyidagi nuqtalarning qaysi biri $f(x)=-2x+9$ funksiyaning grafigiga tegishli?

   A) $(2;5)$ B) $(-1;1)$ C) $(1;-1)$
   D) $(-5;2)$

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
   1) $(x-c)\cdot(x-d)=x^2+(c-d)x+cd$;
   2) $(x-c)\cdot(x+d)=x^2-(c-d)x-cd$;
   3) $12x^2+y^2-(8x^2-5y^2-(-10x^2+(5x^2-6y^2)))=-x^2$;
   4) $3a-(2c-(6a-(c-b)+c+(a+8b)-6c))=10a+9b-8c$.

   A) 1; 3; 4 B) 1; 2; 4 C) 1; 2; 3 D) 2; 3; 4

5. 1) $2a^2-4ab+2b^2=(b-a)^2\cdot 2$
   2) $-\frac{x^3-y^3}{x^2+xy+y^2}=x-y$
   3) $-(a-b-c)=-a+b+c$
   4) $-\frac{a^2-1}{b}=\frac{a^2-1}{b}$. Ushbu tengliklarning qaysi biri ayniyat?

   A) 2; 4 B) 1 C) 1; 3 D) 2

6. $\begin{cases} y+4=2 \\ xy^2=4 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.

   A) $(-1;-2)$ B) $(1;-2)$
   C) $(-1;-2);\ (1;-2)$ D) $\emptyset$

7. $y=\frac{-3}{e^x}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

   A) $3lnx+C$ B) $\frac{3}{e^x}+C$ C) $\frac{1}{3e^x}+C$
   D) $\frac{1}{3}e^{-x}+C$

8. Qo'shni burchaklardan biri ikkinchisidan 52° ga katta. Shu burchaklardan kattasini toping.

   A) 118° B) 106° C) 114° D) 116°

9. $x^2+y^2+4x+6y-3=0$ tenglama bilan berilgan aylananing radiusini toping.

   A) 6 B) 3 C) 5 D) 4

10. Og'ma va tekislik orasidagi burchak $arccos0,28$ ga, og'maning tekislikdagi proyeksiyasi 21 ga teng. Perpendikulyarning uzunligini toping.

    A) 36 B) $5\frac{22}{25}$ C) 72 D) $20\frac{4}{25}$

11. Oyz tekisligiga nisbatan $(1;2;3)$ nuqtaga simmetrik bo'lgan nuqtani toping.

    A) $(-1;-2;3)$ B) $(-1;2;3)$ C) $(1;-2;3)$
    D) $(1;2;-3)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
    1) $cos(x+y)=sinx\cdot cosy+cosx\cdot siny$;
    2) $tg(x+y)=\frac{tgx+tgy}{1-tgx\cdot tgy}$,
    $x,y,x+y\neq\frac{\pi}{2}+\pi n, n\in Z$;
    3) $sin^2\frac{x}{2}=\frac{1-cosx}{2}$;
    4) $sinx-siny=2cos\frac{x+y}{2}\cdot sin\frac{x-y}{2}$.

    A) 1; 2; 4 B) 1; 2; 3 C) 1; 3; 4 D) 2; 3; 4

13. Quyidagi oddiy kasr ko'rinishida berilgan sonlardan qaysilarini chekli o'nli kasr ko'rinishiga keltirib bo'lmaydi:
    1) $\frac{7}{32}$; 2) $\frac{10}{55}$; 3) $\frac{11}{160}$; 4) $\frac{20}{35}$?

    A) 3; 4 B) 2; 3 C) 2; 4 D) 4; 1

14. Mis va qo'rg'oshindan iborat qotishmaning 60% i mis bo'lib, mis qo'rg'oshindan $1\frac{5}{6}$ kg ko'p. Qotishmada qancha mis bor?

    A) 7 B) 5 C) 5,5 D) 6

15. $(a+b-2)(a+b)-(a-b)^2+1$ ni ko'paytuvchilarga ajrating.

    A) $(2a+1)(2b+1)$ B) $(2a-1)(2b-1)$
    C) $(a+1)(2b-1)$ D) $2b(a+1)$

16. $\frac{2^8\cdot 10^{10}\cdot 50^5}{(80+20)^{16}}$ ni hisoblang.

    A) 16 B) $\frac{1}{32}$ C) $\frac{1}{64}$ D) 8

17. Agar $a=\sqrt{2}$ va $b=\sqrt[3]{3}$ bo'lsa, $\sqrt{a^2-2ab+b^2}-\sqrt{a^2+2ab+b^2}$ ning qiymatini hisoblang.

    A) $-\sqrt[3]{12}$ B) $\sqrt{8}$ C) $\sqrt[3]{24}$ D) $-\sqrt{8}$

18. Ikki sonning ayirmasi 5 ga teng. Agar shu sonlardan kattasining 20% i kichigining $\frac{7}{30}$ qismiga teng bo'lsa, shu sonlarni toping.

    A) 36 va 41 B) 30 va 35 C) 63 va 68
    D) 45 va 50

19. a ning qanday qiymatida $x^2-(a-1)x+32=0$ tenglamaning ildizlaridan biri 4 ga teng bo'ladi?
A) 12 B) 13 C) 14 D) 11

20. (x_n) $(n\in N)$ arifmetik progressiyaning dastlabki n ta hadi yig'indisi 120 ga teng. Agar $x_3+x_{n-2}=30$ bo'lsa, yig'indida nechta had qatnashgan?
A) 10 B) 6 C) 12 D) 8

21. $y=x^2-2x-2,75$ dagi qanday nuqtada o'tkazilgan urinma $y=-4(x+1)$ to'g'ri chiziqqa parallel bo'ladi?
A) $(-1;\ 4)$ B) $(-1;\ \frac{1}{4})$ C) $(1;\ 1)$
D) $(1;\ \frac{1}{4})$

22. To'g'ri burchakli uchburchakning kateti $6\sqrt{3}$ ga, bu katet qarshisidagi burchak 60° ga teng. Shu uchburchakning gipotenuzasini toping.
A) $4\sqrt{3}$ B) 12 C) $3\sqrt{3}$ D) $6\sqrt{3}$

23. Bir uchi $(8;2)$ nuqtada, o'rtasi $(4,5;-5,5)$ nuqtada bo'lgan kesmaning ikkinchi uchi koordinatalarini toping.
A) $(0;-24)$ B) $(1;-13)$ C) $(0;26)$
D) $(0;-26)$

24. $ctg(\frac{\pi}{2}-3x)=tg2x+tgx$ tenglamani yeching.
A) $\frac{\pi n}{3},\ n\in Z$ B) $\frac{\pi n}{2},\ n\in Z$
C) $\frac{\pi n}{2};\pi n,\ n\in Z$ D) $\pi n,\ n\in Z$

25. Agar x, y, z va t ketma-ket keladigan natural sonlar bo'lsa, quyidagilarning qaysi biri albatta juft son bo'ladi?
A) $\frac{xyzt}{24}$ B) $\frac{x+y+z}{3}$ C) $\frac{yzt}{3}$ D) $\frac{xyz}{6}$

26. x ning y ga nisbati 9:7 kabi, y ning z ga nisbati 14:15 kabi, z ning necha foizini x tashkil etadi?
A) 140 B) 120 C) 160 D) 80

27. Agar $\sqrt{13+z^3}-\sqrt{z^3-14}=3,375$ bo'lsa, $\sqrt{13+z^3}+\sqrt{z^3-14}$ ning qiymati nechaga teng bo'ladi?
A) 6 B) 5 C) 8 D) 7

28. $\left(\frac{a^{\frac{3}{2}}+b^{\frac{3}{2}}}{(a^{\frac{1}{2}}+b^{\frac{1}{2}})^2}-\frac{a^{\frac{1}{2}}b^{\frac{1}{2}}}{a^{\frac{1}{2}}+b^{\frac{1}{2}}}\right):(a-b)$ ning $a=0,36$ va $b=0,16$ bo'lgandagi qiymatini hisoblang.
A) $\frac{1}{5}$ B) $-\frac{1}{4}$ C) $-\frac{1}{5}$ D) $\frac{1}{125}$

29. Agar $\sqrt{3x^2-6x+16}=2x-1$ bo'lsa, $x^2(4-x)$ ning qiymatini toping.
A) 65 B) 9 C) 54 D) -65

30. $3x^2\le 16x-5$ tengsizlikning butun yechimlari ko'paytmasini toping.
A) 120 B) 12 C) 24 D) 30

31. Arifmetik progressiyaning oltinchi hadi 10 ga, dastlabki 16 ta hadining yig'indisi 200 ga teng. Bu progressiyaning 9-hadini toping.
A) 14 B) 16 C) 13 D) 18

32. $|x-14|\cdot log_2(x-4)=3(14-x)$ tenglama ildizlarining yig'indisini toping.
A) 26 B) 42 C) 24 D) $30\frac{1}{8}$

33. Kichik diagonali $24\sqrt{3}$ bo'lgan muntazam oltiburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusini toping.
A) $12\sqrt{3}$ B) $24\sqrt{3}$ C) 24 D) 12

34. Muntazam uchburchakli piramidaning yon qirrasi 20 ga, asosining tomoni $16\sqrt{3}$ ga teng. Piramidaning balandligini toping.
A) $8\sqrt{3}$ B) 12 C) 8 D) 16

35. Radiusi 6 ga teng shar konusga ichki chizilgan. Konus yasovchisi va balandligi orasidagi burchak 30° ga teng. Konus yon sirtining yuzini toping.
A) 96π B) 48π C) 216π D) 72π

36. Agar $sin(\alpha+\beta)=\frac{4}{5}, sin(\alpha-\beta)=\frac{5}{13}$ va $0<\beta<\alpha<\frac{\pi}{4}$ bo'lsa, $cos\alpha+cos\beta$ ning qiymatini hisoblang.
A) $\frac{10}{\sqrt{130}}$ B) $\sqrt{\frac{20}{13}}$ C) $\frac{5}{\sqrt{130}}$ D) $\sqrt{\frac{40}{13}}$

Matematika

1. $3\frac{3}{5} : 2\frac{7}{10} - 3\frac{3}{4} : x$ proporsiyaning noma'lum hadini toping.
A) $2\frac{3}{10}$ B) $2\frac{13}{16}$ C) $1\frac{15}{16}$ D) $3\frac{1}{3}$

2. $2\frac{1}{3} \cdot (\frac{6}{7}m - 3) - 1\frac{2}{3} \cdot (\frac{6}{5}m - 6)$ ni soddalashtiring.
A) 4 B) $m-2$ C) 3 D) $m+3$

3. Quyidagilardan qaysilari o'suvchi funksiyalar?
1) $y = 3^{-x}$; 2) $y = (\sqrt[4]{10})^x$; 3) $y = (\frac{11}{9})^x$;
4) $y = (\frac{5}{3})^x$; 5) $y = (0,84)^x$.
A) 1; 2; 3 B) 1; 2; 4 C) 2; 3; 4
D) 3; 4; 5

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
1) $(x-c)\cdot(x-d) = x^2 - (c+d)x + cd$;
2) $(x-e)\cdot(x+d) = x^2 - (e-d)x - ed$;
3) $5a^2 - 3b^2 - ((a^2 - 2ab - b^2) - (5a^2 - 2ab - b^2)) = 9a^2 - 3b^2$;
4) $3a - (2c - (6a - (c-b) + c + (a+8b) - 6c)) = 2a + 7b - 8c$.
A) 1;3;4 B) 2;3;4 C) 1;2;4 D) 1;2;3

5. $(m^2 - \frac{2+m^4}{m^2-1}) : \frac{m^2+2}{m-1}$ ni soddalashtiring.
A) $\frac{1}{m-1}$ B) $m-1$ C) 1 D) $-\frac{1}{m+1}$

6. $\begin{cases} x^2 - y^2 + 2x - 4 = 0 \\ x + y = 0 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.
A) $(-2;-2)$ B) $(2;2)$ C) $(2;-2)$
D) $(-1;-1)$

7. $f(x) = x^2$ funksiyaning (3; 5) nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{x^3}{3} - 7$ B) $\frac{x^3}{3} + 7$ C) $2x + 4$
D) $\frac{x^3}{3} - 4$

8. Ikki to'g'ri chiziqning kesishishidan hosil bo'lgan burchaklarning biri 40° ga teng. Qolgan burchaklarni toping.
A) 110°, 110°, 110° B) 150°, 150°, 30°
C) 140°, 140°, 40° D) 60°, 60°, 30°

9. $\vec{m}(-3;1)$ va $\vec{n}(5;-6)$ vektorlar berilgan. $\vec{a} = \vec{n} - 3 \cdot \vec{m}$ vektorning koordinatalarini toping.
A) $(4;-3)$ B) $(14;-9)$ C) $(9;3)$
D) $(14;-3)$

10. Tekislikka tushirilgan og'maning uzunligi 75 ga, uning tekislikdagi proyeksiyasi esa 60 ga teng. Og'ma va tekislik orasidagi burchakni toping.
A) $arcsin\frac{3}{5}$ B) $arccos\frac{3}{10}$ C) $arcsin\frac{3}{4}$
D) $arcsin\frac{4}{5}$

11. Koordinatalar boshiga nisbatan (1;2;3) nuqtaga simmetrik bo'lgan nuqtani toping.
A) $(-1;-2;-3)$ B) $(-1;2;3)$ C) $(1;-2;3)$
D) $(1;2;-3)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
1) $sin(x-y) = sinx \cdot cosy - cosx \cdot siny$;
2) $cos^2\frac{x}{2} = \frac{1-cosx}{2}$;
3) $cosx + cosy = 2cos\frac{x+y}{2}cos\frac{x-y}{2}$;
4) $tgx - tgy = \frac{sin(x-y)}{cosx \cdot cosy}$,
$x, y \neq \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z$.
A) 2;3;4 B) 1;2;4 C) 1;3;4 D) 1;2;3

13. Uchta sonning o'rta arifmetigi 8,1 ga, birinchi son esa 7,35 ga teng. Agar keyingi har bir son avvalgisidan ayni bir songa farq qilsa, keyingi sondan oldingisining ayirmasini toping.
A) 0,1 B) 0,75 C) 0,2 D) $\frac{1}{4}$

14. Mahsulotning narxi 25% ga oshirildi. Lekin mahsulotga talabning kamligi tufayli uning narxi 12% ga kamaytirildi. Mahsulotning oxirgi narxi dastlabkisiga qaraganda necha foiz ortdi?
A) 13 B) 10 C) 12,5 D) 12

15. $(a+b)(a+b+1) - (a-b)(a-b-1)$ ni ko'paytuvchilarga ajrating.
A) $4a(b+1)$ B) $2(a+b)(b+1)$
C) $2a(2b+1)$ D) $2a(b-1)$

16. $\frac{(-3)^{17}\cdot(-4) - 2\cdot(-3)^{16}}{9^7 \cdot 15}$ sonining uchdan bir qismini toping.
A) 3 B) 6 C) 9 D) 2

17. $\sqrt{a} - \sqrt{b} = 3$ va $a - b = 24$ bo'lsa, $\sqrt{a} + \sqrt{b}$ nimaga teng?
A) 4 B) 6 C) 8 D) 5

18. a ning qanday qiymatlarida $ax - 3 = a + 4x$ tenglamaning yechimi bo'lmaydi?
A) $a = 2$ B) $a = 4$ C) $a = -2$
D) $a = -4$

19. $x^2 - 3|x| - 28 = 0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) -36 B) -49 C) -64 D) -32

20. Arifmetik progressiyada $a_2 - a_1 = 6$ bo'lsa, $a_8 - a_5$ ning qiymati nechaga teng bo'ladi?
A) 12 B) 10 C) 18 D) 9

21. $f(x) = -\frac{1}{3}x^3 - \frac{1}{6}x + \frac{1}{3}$ funksiyaning $[-1;1]$ kesmadagi eng katta va eng kichik qiymatlari yig'indisini hisoblang.
A) 0 B) $-\frac{1}{3}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{1}{3}$

22. To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi 75 sm, katetlari esa o'zaro 7:24 nisbatda. Shu uchburchakning katta katetini toping.
A) 36 B) 63 C) 42 D) 72

23. Parallelogrammning diagonali tomonlari bilan 20° va 30° li burchaklar tashkil qiladi. Parallelogrammning katta burchagini toping.
A) 145° B) 100° C) 110° D) 130°

24. $4cos^2 2x - 2,5 = cos4x$ tenglamani yeching.
A) $\pm\frac{\pi}{12} + \frac{\pi n}{2}, n \in Z$ B) $\frac{\pi}{4} + \frac{n\pi}{2}, n \in Z$
C) $\frac{\pi}{3} + \frac{n\pi}{2}, n \in Z$ D) $\frac{\pi}{6} + \frac{n\pi}{2}, n \in Z$

25. 36455472363 ni 2, 4, 5, 9, 10 va 25 ga bo'lganda hosil bo'lgan qoldiqlar yig'indisini toping.
A) 16 B) 26 C) 14 D) 15

26. Ikkita musbat sonning o'rta arifmetigi 6,5 ga teng. Ularning o'rta geometrigi esa shu sonlarning o'rta arifmetigini $\frac{12}{13}$ qismini tashkil etadi. Berilgan sonlarni toping.
A) 12 va 1 B) 12 va 3 C) 9 va 4
D) 7 va 6

27. $\frac{1}{2+\sqrt{3}} + \frac{2}{\sqrt{3}-1} - 1$ ni hisoblang.
A) 3 B) 2 C) $\sqrt{3}$ D) 4

28. $\sqrt[3]{2001 \cdot 1997 - 1998 \cdot 2000 + 9}$ ni hisoblang.
A) $\sqrt[3]{13}$ B) 2 C) $\sqrt[3]{6}$ D) $\sqrt[3]{17}$

29. Ikki xonali son o'zining raqamlari yig'indisidan 4 marta katta. Raqamlari kvadratlarining yig'indisi 80 ga teng. Shu ikki xonali sonning kvadratini hisoblang.
A) 196 B) 7056 C) 169 D) 2304

30. $a > c > b > 0$ bo'lsa, $\frac{1}{a}$, $\frac{1}{a+b}$ va $\frac{1}{a+c}$ larni taqqoslang.
A) $\frac{1}{a} < \frac{1}{a+b} < \frac{1}{a+c}$ B) $\frac{1}{a} < \frac{1}{a+c} < \frac{1}{a+b}$
C) $\frac{1}{a+c} < \frac{1}{a+b} < \frac{1}{a}$ D) $\frac{1}{a+b} < \frac{1}{a+c} < \frac{1}{a}$

31. Olti haddan iborat geometrik progressiyaning dastlabki uchta hadining yig'indisi 168 ga, keyingi uchtasiniki esa 21 ga teng. Shu progressiyaning birinchi hadini toping.
A) 96 B) 85 C) 126 D) $\frac{1}{2}$

32. $log_2 log_{\frac{1}{3}} log_8 x > 0$ tengsizlikni yeching.
A) $(-\infty;0)\bigcup(0;2)$ B) $(1;2)$ C) $(-\infty\ 2)$
D) $(0;2)$

33. Muntazam oltiburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusi $4\sqrt{3}$ ga teng. Uning kichik diagonalini toping.
A) 12 B) $6\sqrt{6}$ C) $3\sqrt{6}$ D) 6

34. Muntazam uchburchakli piramidaning balandligi asosining tomonidan olti marta kichik. Piramidaning yon yog'i asos tekisligi bilan qanday burchak tashkil etadi?
A) 30° B) 60° C) 45° D) 15°

35. Balandligi $\sqrt{3}$ ga, yasovchisi $2\sqrt{3}$ ga teng bo'lgan konusga tashqi chizilgan sharning radiusini toping.
A) 2 B) $2\sqrt{3}$ C) $3\sqrt{3}$ D) $3\sqrt{2}$

36. $\frac{2cos^2\frac{\alpha}{2}}{ctg\frac{\alpha}{4} - tg\frac{\alpha}{4}}$ ni soddalashtiring.
A) $cos\alpha$ B) $-sin\alpha$ C) $\frac{1}{2}sin\alpha$ D) $sin\alpha$

Matematika

1. $5,8-\frac{3}{7}\cdot 2,2\cdot(-2\frac{1}{3})$ ni hisoblang.
   A) -8 B) 6 C) $-3,6$ D) 8

2. $\frac{y^2-x^2}{2xy}:\frac{x+y}{2y}$ ni soddalashtiring.
   A) $\frac{x-y}{y(1+y)}$ B) $\frac{x-y}{y}$ C) $\frac{y-x}{x}$
   D) $1-\frac{x}{y}$

3. k ning qanday qiymatlarida $y=\frac{k}{x}-1$ funksiyaning grafigi $C(-2;\ -3)$ nuqtadan o'tadi?
   A) 4 B) 1 C) $\frac{1}{2}$ D) -1

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
   1) $(x-c)\cdot(x-d)=x^2-(c+d)x+cd$;
   2) $(x-e)\cdot(x+d)=x^2-(e-d)x-ed$;
   3) $12x^2+y^2-(8x^2-5y^2-(-10x^2+(5x^2-6y^2)))=-x^2+12y^2$;
   4) $3a-(2c-(6a-(c-b)+c+(a+8b)-6c))=10a+9b-8c$.
   A) 1; 3; 4 B) 2; 3; 4 C) 1; 2; 4 D) 1; 2; 3

5. $(x^2+xy+y^2)(x-y)$ ifodaning $x=\sqrt[3]{4}$ va $y=\sqrt[3]{2}$ bo'lgandagi qiymatini hisoblang.
   A) -6 B) 6 C) -2 D) 2

6. $\begin{cases} y+2=0 \\ x^2y=18 \end{cases}$ tenglamalar sistemasining yechimini toping.
   A) $(-3;\ 2)$ B) $(-3;\ -2)$ C) $\emptyset$
   D) $(-3;\ -2)$, $(3;\ -2)$

7. $F(x)=2ctgx-x+C$ quyidagi funksiyalardan qaysi birining boshlang'ich funksiyasi?
   A) $f(x)=\frac{2}{\cos^2 x}-1$ B) $f(x)=-\frac{2}{\sin^2 x}-1$
   C) $f(x)=\frac{2}{\sin^2 x}+1$ D) $f(x)=-\frac{2}{\cos^2 x}-1$

8. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?
   A) *Agar ikkita teng yonli uchburchakning asoslari va asoslaridagi burchaklari teng bo'lsa, bunday uchburchaklar tengdir.*
   B) *Teng tomonli uchburchakning balandliklari uchidan boshlab hisoblanganda kesishish nuqtasida 2:1 nisbatda bo'linadi.*
   C) *Agar bir uchburchakning bir tomoni va shu tomon qarshisidagi burchagi, ikkinchi uchburchakning bir tomoni va shu tomon qarshisidagi burchagiga mos ravishda teng bo'lsa, bu uchburchaklar tengdir.*
   D) *Qavariq beshburchak ichki burchaklarining yig'indisi 540° ga teng.*

9. $x^2+y^2-4x-6y-3=0$ tenglama bilan berilgan avlananing radiusini toping.
   A) 5 B) 3 C) 4 D) 6

10. Tekislikka og'ma va perpendikulyar tushirilgan. Og'ma va tekislik orasidagi burchak $arccos\frac{3}{5}$ ga, og'maning tekislikdagi proyeksiyasi 24 ga teng. Perpendikulyarning uzunligini toping.
    A) $19\frac{1}{5}$ B) 32 C) 72 D) 16

11. Quyidagilardan qaysi biri Oxy tekislikka nisbatan $M(7;\ -3;\ 1)$ nuqtaga simmetrik bo'lgan nuqta?
    A) $(-7;\ 3;\ -1)$ B) $(-7;\ 3;\ 1)$
    C) $(7;\ -3;\ -1)$ D) $(7;\ 3;\ -1)$

12. Quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri?
    1) $sin(x+y)=sinx\cdot cosy+cosx\cdot siny$;
    2) $tg(x+y)=\frac{tgx+tgy}{1-tgx\cdot tgy}$,
    $x, y, x+y\neq\frac{\pi}{2}+\pi n, n\in Z$;
    3) $cos^2\frac{x}{2}=\frac{1-cosx}{2}$;
    4) $sinx+siny=2sin\frac{x+y}{2}cos\frac{x-y}{2}$.
    A) 1; 2; 4 B) 2; 3; 4 C) 1; 3; 4 D) 1; 2; 3

13. $4,2\cdot 13,5-8,7\cdot 4,2-5,8\cdot 8,7+13,5\cdot 5,8$ ni hisoblang.
    A) 52 B) 42 C) 48 D) 50

14. Yog'liligi 2% bo'lgan 80 l sut bilan yog'liligi 5% bo'lgan necha l sut aralashtirilsa, yog'liligi 2,6% bo'lgan sut olish mumkin?
    A) 30 B) 20 C) 50 D) 40

15. $4\sqrt{7\frac{1}{2}}-\frac{2\sqrt{10}}{2\sqrt{3}-\sqrt{10}}+8+3\sqrt{10}$ ni soddalashtiring.
    A) 10 B) $2-3\sqrt{10}$ C) -10
    D) $3\sqrt{10}-2$

16. $\frac{4^{2/3}\cdot 40^{1/3}}{10^{-2/3}}$ ni hisoblang.
    A) 20 B) 15 C) 40 D) 60

17. $\sqrt{2+\sqrt{3}}+\sqrt{2-\sqrt{3}}$ ni soddalashtiring.
    A) $\sqrt{6}$ B) $\sqrt{3}$ C) $\sqrt{2}$ D) $2\sqrt{2}$

18. a ning qanday qiymatlarida $3x+2y=3$ va $3x-2ay=5$ to'g'ri chiziqlarning kesishish nuqtasi musbat ordinataga ega?
    A) $a=2$ B) $a<2$ C) $a<-1$ D) $a>2$

19. $2x^2 - 26x + 32 = 0$ tenglama ildizlarining o'rta proporsionalini toping
A) 5 B) 4 C) 6 D) 7

20. 160 dan katta bo'lmagan 7 ga karrali barcha natural sonlarning yig'indisini toping.
A) 1617 B) 1470 C) 1624 D) 1771

21. $f(x) = -\frac{\sqrt{3}}{2}x^2 + 1$ funksiyaning grafigiga $x_0 = -\frac{1}{3}$ nuqtada o'tkazilgan urinmaning OX o'qi bilan tashkil qilgan burchagini toping.
A) 60° B) 30° C) 150° D) 120°

22. Katetlari 7 va 24 bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga tushirilgan balandligini toping.
A) 6,62 B) 6,72 C) $6\frac{8}{25}$ D) 6,82

23. a ning qanday qiymatlarida $ax + 3y = 8$ va $y - x = 4$ to'g'ri chiziqlar parallel bo'ladi ?
A) $a = 2$ B) $a = 1$ C) $a \in R$ D) $a = -3$

24. $4cos5x = 6 + 3cos(\frac{\pi}{2} + 5x)$ tenglama $[-\pi; 2\pi]$ kesmada nechta ildizga ega?
A) 1 B) 0 C) 3 D) 2

25. 1 dan 120 gacha bo'lgan sonlar orasida 2 ga ham, 5 ga ham bo'linmaydiganlari nechta?
A) 40 B) 36 C) 48 D) 44

26. 1040 soni shunday ikki bo'lakka bo'linganki, ulardan birining 80% i ikkinchisining 24% ini tashkil qiladi. Bo'laklarning kichigini toping.
A) 240 B) 800 C) 460 D) 500

27. $\left(\frac{a^{\frac{1}{2}}+1}{a^{\frac{1}{2}}-1} + \frac{a^{\frac{1}{2}}-1}{a^{\frac{1}{2}}+1} - \frac{4}{a-1}\right)^{-3} - \frac{1}{4}$ ni soddalashtiring.
A) $-\frac{5}{8}$ B) $\frac{3}{8}$ C) $-\frac{1}{8}$ D) $\frac{1}{8}$

28. $\frac{729a+1}{81\sqrt[3]{a^2} - 9a^{\frac{1}{3}} + 1} - \frac{729a-1}{81a^{\frac{2}{3}} + 9\sqrt[3]{a} + 1} + 4$ ni soddalashtiring.
A) 5 B) 4 C) 9 D) 6

29. Agar $\begin{cases} x + y - \sqrt{xy} = 13 \\ x^2 + y^2 + xy = 481 \end{cases}$ bo'lsa, $\sqrt{xy}$ ning qiymatini toping.
A) 42 B) 36 C) 52 D) 12

30. $\sqrt{6x - x^2 - 4} > x - 4$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi butun sonlar nechta?
A) 3 B) 5 C) 2 D) 4

31. Geometrik progressiyaning oltinchi va birinchi hadi ayirmasi 1210 ga, maxraji 3 ga teng. Shu progressiyaning dastlabki oltita hadi yig'indisini toping.
A) 1720 B) 1820 C) 605 D) 1520

32. $y = \sqrt{\lg^2|2x-7| \cdot (5x - 6 - x^2)}$ funksiyaning aniqlanish sohasiga tegishli butun sonlarning yig'indisini toping.
A) 5 B) 14 C) 12 D) 9

33. Teng yonli trapetsiyaning asoslari 21 va 27 ga, kichik asosidagi burchagi esa 135° ga teng. Trapetsiyaning yuzini toping.
A) 62 B) 72 C) 48 D) 96

34. Barcha qirralari teng bo'lgan muntazam uchburchakli prizma asosining medianasi $6\sqrt{3}$ ga teng. Shu prizmaning hajmini toping.
A) $144\sqrt{3}$ B) $432\sqrt{3}$ C) $864\sqrt{3}$ D) $288\sqrt{3}$

35. Konusning yasovchisi 20 ga, asosining diametri 24 ga teng. Unga ichki chizilgan shar sirtining yuzini toping.
A) 156π B) 169π C) 289π D) 144π

36. $tg(arccos\frac{4}{5} \quad arcsin\frac{7}{25})$ ni hisoblang.
A) $\frac{44}{75}$ B) $\frac{44}{117}$ C) $\frac{100}{117}$ D) $\frac{4}{3}$

Matematika

1. $8\frac{3}{4}+\frac{5}{12}:\left(\frac{1}{3}\cdot 2\frac{1}{2}-\frac{7}{8}\right)$ ni hisoblang.
A) $-1\frac{1}{4}$ B) $-6\frac{3}{4}$ C) $-8\frac{3}{4}$ D) $9\frac{1}{4}$

2. $\frac{\sqrt{32}+\sqrt{98}-\sqrt{50}}{\sqrt{72}}:\frac{1}{\sqrt{2}}$ ni hisoblang.
A) 1 B) 2 C) $2\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$

3. k ning qanday qiymatida $y=kx^2-2$ funksiyaning grafigi $A(-1;\ 0)$ nuqtadan o'tadi?
A) -3 B) 4 C) 2 D) 3

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysilari ayniyat?
1) $(x-c)\cdot(x+d)=x^2+(c-d)x-cd$;
2) $12x^2+y^2-(8x^2-5y^2-(-10x^2+(5x^2-6y^2)))=-x^2$;
3) $5a^2-3b^2-((a^2-2ab-b^2)-(5a^2-2ab-b^2))=9a^2-3b^2$;
4) $3a-(2c-(6a-(c-b)+c+(a+8b)-6c))=10a+9b-8c$.
A) 1;3;4 B) 2;3;4 C) 1;2;3 D) 1;2;4

5. $\frac{0,05\cdot 0,9-0,05}{0,2^2-2\cdot 0,06+0,3^2}$ ning qiymatini hisoblang.
A) -2 B) 0,2 C) 0,25 D) $-0,5$

6. $\begin{cases} x^2+y^2=5 \\ x-y=1, \end{cases}\quad 2\cdot x\cdot y=?$
A) 3 B) 2 C) 4 D) 1,5

7. $F(x)=-3ctgx-2x+C$ funksiya quyidagi funksiyalardan qaysi birining boshlang'ich funksiyasi bo'ladi?
A) $f(x)=\frac{3}{cos^2x}-2$ B) $f(x)=-\frac{3}{sin^2x}+2$
C) $f(x)=-\frac{3}{cos^2x}+2$ D) $f(x)=\frac{3}{sin^2x}-2$

8. Qo'shni burchaklardan biri ikinchisidan besh marta kichik bo'lsa, shu burchaklardan kattasini toping.
A) 130° B) 150° C) 144° D) 140°

9. $P(-3;0)$ nuqtani koordinata boshi atrofida 90° ga burganda hosil bo'ladigan nuqtaning koordinatalarini toping.
A) $(0;\ -3)$ B) $(3;\ 0)$ C) $(0;\ 3)$
D) $(3;\ 3)$

10. Tekislikka og'ma va perpendikulyar tushirilgan. Og'maning tekislikdagi proyeksiyasi 20 ga, perpendikulyarning uzunligi 21 ga teng. Og'ma va perpendikulyar orasidagi burchakni toping.
A) $arccos\frac{20}{21}$ B) $arcsin\frac{20}{29}$ C) $arcsin\frac{20}{21}$
D) $arctg\frac{21}{29}$

